



***O`zbekiston Respublikasi
Oliy va O`rta maxsus ta'lim Vazirligi
Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi
Andijon Davlat Universiteti
«O`zbekiston tarixi»
kafedrası***

Ma`rufov Sherzodbek n i n g

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “Asaka tumanidan qatag`on qilingan Obiddinov
Ibroxim Sarkor, Sa'diev Mulla Arabboy, Nazarso`fiev
Soliqori, Soipov Yo`ldoshlarning hayot yo`li va taqdiri”.**

Ilmiy raxbar:

Dots. S.A.Xoshimov.

Andijan 2011

Reja.

Kirish.

1. Asaka tumanida kollektivlashtirish, quloqqa tortish va uning oqibatlari.
2. «Katta terror» qurbonlarining hayot yo`li va taqdiri.
3. Qatag`on qurbonlarining xozirgi avlodlari.

Xulosa.

Adabiyot va manbalar ro`yxati.

Ilovalar.

Kirish.

«O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini
unutgan millatgan kelajagi yo'q.»¹

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida respublikamizda tub islohatlarni o'tkazish jarayonida milliy tiklanish, ma'naviy yangilanish va milliy o'zlikni anglash va erkin tafakkurga ega bo'lgan jamiyat a'zolarini tarbiyalash kabi ulug'vor ishlarda tarix fanining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch» nomli asarida el-yurtimiz o'zining ko'p asrlik tarixi davomida ko'plab mash'um xatarlarni necha bor ko'rgani, ularning jabru-jafosini tortgani haqida to'xtalib, shunday yozadi: «Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma'naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o'tmish, bosib o'tgan mashaqqatli yo'limiz barchamizga saboq bo'lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'lib yashashga da'vat etishi lozim. O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topgan.»²

Shuningdek, Prezidentimiz Islom Karimov butun xalqni, ayniqsa yosh avlodni ilmiy tarixiy bilimlar bilan qurollantirish, tarix tarbiyasi berish, tarixiy xotirani shakllantirishni birinchi darajali vazifa sifatida ta'riflab berdi.³ Bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etgan vazifa ayni vaqtda mustabid sovetlar davri tarixini ham o'rganish, bilish va tadqiq etishni, shu asosda zarur hayotiy, amaliy xulosalar chiqarib olishni ham istisno etmaydi. Tariximiz xoh achinarli, alamli, fojiali bo'lsin, xoh qahramonona, shonu shavkatli bo'lsin, baribir u bizning tariximiz, o'tmishimiz, hozirgi kunimiz va kelajagimizni bog'lab turadigan muhim zanjir hisoblanadi. Shu bois sovet davlati tarixidagi tariximizning ham ijobiy, ham fojiali sahifalarini xolislik bilan ochib bermasdan turib yangi jamiyat qurolmaymiz. Prezident I.A.Karimov to'g'ri ta'kidlab o'tganidek, hayotda adolatni o'rnatish tarixda adolatni o'rnatishdan boshlanmog'i kerak. Buni XX asrning 30-50 yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan qishloq aholisini qatag'on qilinishi, dehqonlarni turli hil siyosiy aqidalar niqobida, asosida surgun qilinishi va bu badarg'a etilganlarning fojeali taqdiri to'la-to'kis isbotlamoqda.

Shu bois majburiy kollektivlashtirish va u bilan parallel ravishda olib borilgan “quloq”lashtirish va “quloq”qa tortilganlarni badarg'a, surgun qilish, ularning maxsus “quloqlar posyolkalari”dagi ayanchli hayoti, turmushi, qismati va ularning xukumat qarorlar ostida ozod qilinishi tarixini o'rganish ham o'zbek tarixshunosligining dolzarb masalalaridandir.

Mavzuning dolzarbligi yana shu bilan ham belgilanadiki, sobiq totalitar hokimiyat tomonidan o'zbek qishlog'ining tadbirkor, o'ziga to'q toifasi bo'lgan xo'jaliklarning tugatilishi va qatag'on qilinishining haqqoniy manzarasi va mexanizmini ilmiy yoritilishi tarixiy haqiqatni tiklashga va tarixiy bilimlarimizni boyitishga yordam beradi. Yaqin davrlargacha mazkur mavzuni o'rganishga bag'ishlangan fundamental ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmaganligi tufayli ham “quloq qilish” siyosati, uning fojiali oqibatlari, surgun qilingan, qatag'onga uchragan vatandoshlarimiz, ularning begona yurtlardagi ayanchli hayoti tarixini o'rganish va yoritishning dolzarbligini ko'rsatib turibdi. Nohaqdan qatag'on qilinib, o'zga yurtlarga badarg'a qilingan “quloqlar”ning nomi, achinarli qismatini aniqlash, hayoti va mehnat faoliyatini, ikkinchi jahon urushidagi ishtiroklarini yoritish tarixchilar zimmasidagi muhim vazifalardan biridir.

Mavzuning manbashunosligi. 1992 yildan boshlab muammo tarixshunosligining mutlaqo yangi bosqichi boshlandi. Mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarda tarixchi olimlar yangi ochilgan arxiv xujjatlari va boshqa manbalarga asoslanib, muammoga mutlaqo boshqacha

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият энгилмас куч. Т., «Маънавият», 2008

² Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008. – Б. 4-5.

³ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йы=. Т., “Шар=”, 1998. 8–бет.

yondashdilar. Xususan, R. Aminova o'zining maqolalari va yirik monografiyasida¹ kollektivlashtirishni qashshoqlashtirish deb baxolaydi. Olimaning bu asarlari o'zbek tarixshunosligiga katta xissa bo'lib qo'shildi. R. Aminova kollektivlashtirish va quloq qilish tarixining avvalgi markscha-lenincha partiya soxtalashtirgan talqinidan butunlay voz kechib, yangicha metodologiya ruxida o'rganishni boshlab berdi. U sovet davrida yaratilgan asar va maqolalarda kollektivlashtirish, quloq qilish va surgun etish masalalari soxtalashtirilgani, buzilgani, bu mavzudagi adabiyotlar, dissertatsiyalar, maqolalar o'sha davr ruxida yozilgani, tarix fanida xam adolatsizlik xukmron bo'lganini ko'rsatib o'tadi. Olima o'zbek tarixshunosligida yuz bergan bu kabi tarixiy voqealarni yangicha tushunish, talqin va taxlil qilishga ulgurgan edi. R.Aminovanning shogirdlaridan A.A.Golovanov, I.M.Saidov²lar xam masalaga yangicha yondashdilar.

Sovet davrida yaratilgan tarixiy tadqiqotlarda quloq qilinganlarni qishloq axolisi orasidan yulib olib qamash, otish va surgun qilish, surgundagilarning azoblari kabi fojiali voqea va xodisalar ro'y-rost ochib berilmagan. Aksincha, kollektivlashtirish bolshevizmning agrar siyosati erishgan katta yutug'i sifatida baxolangan, xatto bu tajriba "demokratik yo'l"dan borayotgan chet davlatlarga "eksperiment" tarzida tavsiya qilingan. Ular xam bolsheviklar qo'llagan kollektivlashtirish fojiasiga giriftor bo'lganlar.

Mustaqillik yillarida yaratilgan "O'zbekistonning yangi tarixi" asarining 2-kitobida³ kollektivlashtirishning majburiy o'tkazilganligi va uning oqibatlari ilk marta yoritildi. Shuningdek, mazkur mavzu bo'yicha yangicha metodologik qarashlar o'rta maktab o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalari uchun chiqarilgan darslik va qo'llanmalarda o'z aksini topdi.⁴ Tarixchi olim R.Shamsutdinov o'zining monografiyalari va boshqa tadqiqotlarida⁵ O'zbekistonda birinchi bo'lib ushbu muammoning juda ko'p jixatlarini yoritib berdi. Uning asarlarida O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekistonda o'tkazilgan quloqlashtirish siyosatining butun daxshatlari tasvirlangan. Shuningdek, R.Shamsutdinov tomonidan mavzuga oid ko'plab arxiv xujjatlari turli to'plamlar xolida nashr qilinmoqda.

R.T.Shamsutdinovning "Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun" nomli monografiyasida O'rta Osiyo mintaqasidagi kollektivlashtirish, quloqlashtirish va bu siyosiy kompaniyalarga qarshi xarakatlar, qishloqdagi isyonlar, ayollar qo'zg'olonlari, 1930-1932 yillardagi "quloqlar" surguni, muxojirlikdagi "quloqlar", Ukraina va Shimoliy Kavkazga surgun qilinganlar xayoti, O'rta Osiyodagi mexnat posyolkalari, "quloqlar"ning o'z yurtlariga qaytishi masalalari yoritilgan. Shuningdek, muallif o'z asarida qishloq fojiasi sababchilari, aybdorlarining nomlarini keltirishga jur'at eta olgan. L.N.Belskiy, E.K.Evdokimov, V.A.Karutskiy, L.G.Mironov, G.P.Matson, V.M.Kurukovskiy, N.M.Rayskiy, R.A.Pilyar, A.A.Slutskiy, K.Ya.Bauman, M.D.Berman, I.A.Zelinskiy, L.B.Zalin, N.A.Zagvozdin, N.Yu.Perkonlar O'rta Osiyoda kollektivlashtirish, quloq qilish va surgun etish kompaniyasining tepasida turib, maxalliy arbob va xodimlardan iborat katta tayanchga ega bo'lganliklari ko'rsatilgan.⁶

¹ Аминова Р.Х. Коллективлаштириш ва қашшоқлаштириш демак. // Шарқ юлдузи, 1992. №12. Б. 183-188; Унинг ўзи. Возвращаясь к истории коллективизации в Узбекистане. –Т.: Фан, 1995; Аминова Р., Жамолхожи И. Кулоқ қилинганлар қисмати // Мулоқот, 2001. № 4. –Б. 25-26.

² Голованов А.А. Крестьянство Узбекистана: эволюция и социальное положение.(1917-1937гг.) -Т.: Фан, 1992; Голованов А.А., Саидов И.М. Дехканство Узбекистана на историческом повороте второй половины XIX –первой трети XX вв. -Самарканд, 2007.

³ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2- китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. - Т.: Шарқ, 2000.

⁴ Алимова Д. ва б. Ўзбекистон тарихи (1917- 1991й.) 10- синф учун дарслик. – Т.: Шарқ, 2000; Ражабов Қ., Ҳайдаров М. Туркистон тарихи(1917- 1924й.) Ўқув қўлланмаси. – Т.: Университет, 2002; Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар (Учинчи китоб). Андижон, 2004 ва б.

⁵ Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001.

⁶ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш кулоқлаштириш, сургун. (Ўрта Осиё республикалари мисолида). – Тошкент: Шарқ, 2003.

R. Shamsutdinovning xammualliflikdagi boshqa monografik tadqiqotlarida¹ O'zbekistonda kollektivlashtirish, quloq qilish va surgun etish tarixining turli talqinlari, kollektivlashtirish, quloqlashtirish, surgun va ularga qarshi dexqonlar kurashi, Shimoliy Kavkaz va Shimoliy Qozog'istonga surgun qilinganlarning fojiali xayoti katta, keng va xilma-xil manbalar asosida yoritilgan. Asarda avval e'lon qilinmagan xamda Toshkent, Moskva va Stavropol o'lkasida maxfiylik tamg'asi bilan saqlangan arxiv xujjatlari xamda so'nggi vaqtda xorijda nashr yuzini ko'rgan xujjat va materiallardan keng foydalanilgan va ular birinchi bor ilmiy iste'molga kiritilgan.

“Tarixning xasratli saxifalari”² nomli to'plamning uchinchi bo'limi quloqlashtirish kompaniyasi tarixiga, to'rtinchi bo'limi siyosiy qatag'on qurbonlari tarixiga bag'ishlangan. Unda Shimoliy Kavkazga surgun qilinganlar, Shimoliy qozog'istonga surgun qilinganlar, qatag'on qilingan mulkdorlar fojiasi quloqlarning takroran qatag'on qilinishi, muxojirlikdagi yurtdoshlar qismati xaqida bo'lib, bu maqolalarda mavzuning turli yo'nalishlari bo'yicha yangi materiallar, yangicha talqinlar kiritilgan.

“Vatanimiz o'tmishidan”³ to'plamidagi maqolalarda xam kollektivlash-tirish qurbonlari xaqida yangi ma'lumotlar berilgan.

Mazkur mavzuga oid metodologik xarakterdagi yangicha yondashuv va talqinlar D. Alimovning ikki jildlik tadqiqotida⁴ xam o'z aksini topgan. Shuningdek, D. Alimova va R.Shamsutdinovning maqolasida⁵ mavzuning tarixshunosligi masalalari yoritilgan.

Amalga oshirilgan ushbu ishlarda O'zbekistonning yaqin davri tarixi, ya'ni mustabid sovet tuzumi davri, xususan O'zbekiston sovet istibdodi davridagi tariximizning alamli va qayg'uli sahifalaridan biri 1937-1938 yillar “Katta terror” siyosati tarixini o'rganish va uni haqqoniy tarzda yoritib berish asosiy o'rin egallaydi.

Mustabid sovet tuzumi davrida ushbu qatag'onchilik siyosatiga mutlaqo maxfiylik tamg'asi bosilib, sir saqlanib kelingan. Ya'ni mustaqillikka erishilgungacha bo'lgan davrda ushbu siyosatni o'rganish va uning butun sovet hukumatida yashovchi barcha millat vakillarini xususan o'zbeklarning ham ushbu “Katta terror” siyosatining qurboni bo'lganligi ommadan yashirinib kelingan.

Ushbu siyosatni halq ommasiga keltirgan ma'naviy va moddiy zarari haqidagi Prezident Islom Karimov shunday degan: “1937-1938 yillarda sobiq SSSR hududida mudhish ommaviy siyosiy qatag'onlar amalga oshirilgan edi. Uning salbiy oqibatlarini o'zimizga tasavvur etish uchun birgina O'zbekiston bo'yicha qariyb 100 ming kishi qatag'onga uchrab, 13 ming nafari otib tashlangani eslash kifoya. Insoniy qadr-qimmati toptalgan, hayoti poymol etilgan bu odamlar orasida nafaqat arbob va ziyolilar, balki yuzlab oddiy insonlar, yurtimizda istiqomat qilgan deyarli barcha millat va elatlarning vakillari bor edi. Shu davrda qancha-qancha odamlarning o'z oilasidan judo bo'lgani ayollar bevalikka, go'daklar etimlikka mahkum etilgani, minglab mirishkor dehqonlarning quloq sifatida olis o'lkalarga surgun qilingani inobatga olsak, halqimiz boshiga tushgan fojeaning dahshati ya'nada yaqqol namoyon bo'ladi.”

1937-1938 yillar sobiq Ittifoq tarixiga qatag'onning eng yuqori cho'qqisiga chiqqan davri, «Katta terror»ning apogeyasi sifatida kirgan. So'nggi vaqtda chiqqan ayrim asarlarda,⁶

¹ Шамсутдинов Р, Мамажонов А. Шимолий Кавказ сургунидаги юртдошлар қисмати. – Т.: Шарқ, 2005. – Б.335. Шамсутдинов Р, Акбарова М. Урта Осиёдан Қозоғистонга сургун қилинган қулоқлар ва уларнинг тақдири. (1926-1956й). –Т.2009

² Тарихнинг ҳасратли саҳифалари. Масъул муҳаррир Н.Каримов. –Т.: Шарқ, 2006. –Б.304.

³ Ватанимиз ўтмишидан. –Андижон: Andijon-nashriyot-matbaa, 2007. –Б.200.

⁴ Алимова Д.А. История как история, история как наука. –Т.: Ўзбекистон, 2008. –Т.1. с.280; Т.2.- Т.: Ўзбекистон, 2009. с. 184

⁵ Алимова Д., Шамсутдинов Р. К изучению проблемы историографии и истории коллективизации сельского хозяйства// O'zbekiston tarixi. 2007. N1. с. 24-35.

⁶ Репрессия: 1937-1938 годы. Документы и материалы. Выпуск №1. Сост: Шамсутдинов Р.Т., Каримов Н.Ф., Юсупов Э.Ю. – Т.: Шарқ, 2005, -С.285; Шамсутдинов Рустамбек. Қатағон қурбонлари. (1937 йил 10 август-5ноябрь). Иккинчи китоб. –Т.: Шарқ, 2007. –Б.495; “Репрессия” 1937-1938гг. Документы и материалы. Выпуск 3. Жертвы Большого террора из Узбекистана. 1937 год, ноябрь. Сост: Шамсутдинов Р.Т., Юсупов Э., Мамажонов А, Дўсмаев Э. –Т.: Шарқ, 2007. –С.495; “Репрессия” 1937-1938гг. Документы и материалы.

respublika va xorijda e'lon qilingan qator ilmiy maqolalarda 1937-1938 yillarda qatag'on bo'lganlarning ma'lum qismi haqidagi yangi tarixiy ma'lumotlar ilmiy iste'molga kiritildi.

Mavzu manbashunosliqi. Mazkur mavzu manbashunosligi Respublikaning viloyat va qator tumanlari davlat arxivlaridagi xujjat va materiallarda mavjud. Ular sovet rejimi davrida mutlaqo maxfiylik tamg'asi ostida saqlanib, tadqiqotchilarga berilmay kelingandi. Mustaqillik tufayli bu turdagi xujjatlardan maxfiylik tamg'asi olib tashlandi. Ularning ma'lum qismi to'plamlarda e'lon qilindi.

Respublikaning ayrim viloyatlari Ichki ishlar boshqarmalari arxivlarida mazkur mavzuning ayrim qirralarini ochib berishga xizmat qiluvchi xujjat va materiallar saqlanib qolgan. Masalan, Andijon viloyat Ichki ishlar Boshqarmasi arxivida (AVIIBA), Andijon okrugining Zelenskiy (hozirgi Asaka), Voroshilov (hozirgi Qo'rg'ontepa), Stalin (hozirgi Shaxrixon), Norin rayonlari bo'yicha quloq qilinganlar ro'yxati bor, xar bir quloq xo'jaligi rahbari haqida xufyona ma'lumotlar keltirilgan, quloqlar bo'yicha memorandumlar saqlanib qolgan. Bu materiallar orqali kimlar quloqqa tortilgani va ular qaysi xududlarga surgun qilinganliklarini bilish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, "Shaxidlar xotirasi" xayriya jamg'armasi, Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti tomonidan tayyorlanib professor D.A.Alimova taxriri ostida nashrdan chiqqan uch jildlik hujjatlar va materiallar to'plami¹ mazkur mavzuni tadqiq qilishda asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qildi. Bu to'plam, nafaqat O'rta Osiyoda, xatto Rossiya Federatsiyasida ham ilmiy jamoatchilik tomonidan ijobiy baxolandi, markaziy jurnallarda taqrizlar e'lon qilindi.²

Umumiy xajmi 1500 betdan ortiq bo'lgan ushbu kitoblarni (637 ta xujjatdan iborat) professor R.Shamsutdinov va tarixchi olim B.Rasulov ilmiy izlanishlar asosida nashrga tayyorlab, uni uch jild xolatda chop etdilar.

"O'rta Osiyo qishlog'i fojeasi" kitobi 5 bo'limdan iborat, uning birinchi jildiga O'rta Osiyo respublikalarida amalga oshirilgan majburiy kollektivlashtirish va dexqonlar ommasining kolxozlashtirishga qarshi xarakatlari, quloqlashtirishning moxiyati va uning amalga oshirilishi ko'rsatilgan 243 ta xujjat kiritilgan. Ikkinchi jildda quloq qilingan dexqonlarning surgun va deportatsiya qilinishi, shuningdek, O'rta Osiyo, Ukraina, Shimoliy Kavkaz va Shimoliy Qozog'istonda sovet rejimi tomonidan tashkil qilingan maxsus mexnat posyolkalari xaqida 233 ta xujjat mavjud. Kitobning yakunlovchi uchinchi jildidan o'rin olgan beshinchi bo'lim materiallari "quloq" qilinganlar taqdiriga bag'ishlangan bo'lib, 168 ta hujjat "quloqlar"ning qayta qatag'on qilinishi, majburiy mehnat ko'chkindilarining Ikkinchi jahon urushida qatnashuvi, "quloqlar"ning ozod qilinishi kabi uchta mavzuga ajratilgan. Taniqli tarixchi olim O'zR FA Tarix instituti etakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori Q.Rajabov va filologiya fanlari nomzodi D. Rajabovlar to'plamga baho berarkanlar, shunday xulosaga kelganlar: "R.Shamsutdinov va B.Rasulov tomonidan nashrga tayyorlangan ushbu 3 jildlik xujjatlar va materiallar to'plami kitobi O'rta Osiyo xalqlarining XX asr tarixini o'rganishning muhim

Выпуск 4. Жертвы Большого террора из Узбекистана. 1937 год, декабрь. Сост: Шамсутдинов Р.Т., Абдуллаев М., Дўсматов Э.П., Курбанов Х.Р. –Т.: Шарк, 2008. –С.573. Шамсутдинов Рустамбек. Қатагон қурбонлари. (1938 феврал, сентябр). Бешинчи китоб. –Т.: Шарк, 2009. –Б.413.

¹ Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивания, ссылка. 1929-1955гг. Документы и материалы. Том I-III. Сост: Р.Т.Шамсутдинов, Б.Расулов, под ред. Д.А.Алимовой. –Т.: Шарк, 2006. Том I-656 с., Том II-494 с., Том III-351 с.

² Юсупов Э. Ценное издание о трагических страницах истории коллективизации в Средней Азии. / История Узбекистана. -Т., 2007. -№3. –С.77-79; Осин В.М. Вышли в свет. //Отечественные архивы. -М. 2007. –С.134; Ражабов Қ., Ражабов Д. Селдай келган офат (давр фожеаси хужжатлар нигоҳида).//Муҳофаза, 2007. -№1(27); Юсупов Э. Трагедия среднеазиатского кишлака. / Андижанская правда. 2006, 26 декабрь; Рахмонов Равшан, Ражабов Қахрамон. Ўрта Осиё кишлоғининг фожеаси: тарихий ҳақиқат ва реаллик (ёхуд давр фожеаси хужжатлар нигоҳида). / Андижон ёшлари. 2007, 31 март; Андижоннома. 2007, 28 апрель; Ғофуржон Ҳайдаров. Баҳои холисонаи тарих. /Омўзгор. -№4. 26 январи соли 2007; Асалем Гореев, Нурджанов К. Трагедия среднеазиатского кишлака. Критика и библиография. / Хорезмская правда. 2007, 28 апрель; Земсков В.Н., Юсупов Э.Ю. О книге «Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивания, ссылка в 3-х томах». // Отечественная история, -М., 2007, -№ 3; Юсупов Э.Уникальный источник по истории коллективизации в Средней Азии. // Научный вестник. –Андижан. -№1-2.

manbasi ekanligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. XXI asrda tarixchilar, adabiyotshunoslar, faylasuflar va politologlar bu kitobda e'lon qilingan materiallar va arxiv xujjatlari asosida o'z tadqiqotlarini yangi ma'lumotlar bilan to'ldiradilar.”¹

Kitobning 2-jildida Shimoliy Qozog'istonga oid bir turkum xujjatlar (454, 455, 456, 458, 460, 461, 462, 463, 464, 465, 467, 468, 469-sonli) e'lon qilingan. Fan uchun nihoyatda qimmatli bo'lgan bu noyob hujjatlar Rossiya Federatsiyasi Xavfsizlik xizmati Markaziy arxividan, Rossiya Federatsiyasi davlat arxividan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni arxividan olingan bo'lib, birinchi bor e'lon qilingan.

Bu 3 jildlik to'plamga uning davomi sifatida qo'shimcha, to'ldiruvchi sifatida yana bir to'plam nashr etildi.² Unga 147 ta arxiv materiallari kiritilgan. Avvalgi 3 kitobdagi 637 ta xujjat bilan, jami 784 ta xujjat O'rta Osiyodagi kollektivlashtirish fojeasini yoritishda muhim birlamchi manba sifatida qimmatli ekanini anglash mumkin.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi Asakada zo'rlik bilan o'tkazilgan kollektivlashtirish, quloqqa tortish va «katta terror» yillarida “quloqlar qishlog'i”dagi hayotni va bu jarayonning fojeali oqibatlarini kompleks tarzda o'rganishdan iboratdir. Shu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqot o'z oldiga quyidagi vazifalar qo'ygan:

mavzuni ochib berishga xizmat qiluvchi manbalarni tahlil qilish;

mavzuni yoritishga imkon beruvchi adabiyotlarni tarixshunoslik nuqtai nazardan tahlil etish;

O'rta Osiyoda kollektivlashtirish, quloqlashtirish va unda OGPU, GPU va boshqa ma'muriy, kuch ishlatish qudratiga ega bo'lgan organlarining noqonuniy faoliyatini ochib berish;

quloqqa tortilib, surgun qilinganlar tarkibini tahlil qilish;

surgundagilarning “Katta terror” yoki “quloqlar operatsiyasi” davrida qatag'on qilinganlarning qatag'on qilinishini yoritib berish;

Tadqiqotning ilmiy yanqiligi. Ushbu bitiruv malakaviy ishda Asakalik to'rt oilaning «Katta terror» yillarida Kommunistik partiya va sovetlarning zo'ravonlik bilan, majburan o'tkazilgan kollektivlashtirish, quloqlashtirish oqibatida badavlat, o'ziga to'q, o'rta hol, hatto kambag'al dehqonlarni qamoqqa olinishi va ularning ayanchli, fojeali hayoti, turmushi, avlodlari misolida tadqiq qilindi. Shuningdek, bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda quloqqa tortilgan, surgun qilingan va «Katta terror»da qatag'on qilingan asakaliklardan to'rt nafarining fojeali qismati va taqdiri birinchi bor ilmiy jixatdan umumlashtirildi

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishimiz amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, izlanish natijasida vujudga kelgan ma'lumotlar, xulosalar umumlashtirilib va tartibga keltirildi. Ushbu natijalar O'zbekistonda amalga oshirilgan qatag'onchilik siyosatini va uning fojeali oqibatlarni o'rganish va bu haqda ma'lum bir tasavvur xosil qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda keltirilgan ma'lumotlar, umumlashtirilib nazariy xulosalardan ta'limning turli bosqichlarida dars o'tishda foydalanish mumkin.

Eng muhimi, tadqiqot xalqlarni, ayniqsa, yoshlarni milliy istiqloq, milliy g'oya ruxida tarbiyalashda katta amaliy ahamiyatga egadir.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa, ilovalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishining umumiy xajmi 54 betni tashkil qiladi.

¹ Ражабов Қаҳрамон, Ражабов Дилшод. Селдай келган офат (давр фожеаси хужжатлар нигоҳида).// Муҳофаза, 2007. -№1, 27. Б.25.

² Среднеазиатский кишлак в годы Большого террора. Сост: Шамсутдинов Р.Т., Юсупов Э.Ю. Хошимов С., Дусматов Э.П. -Андижан, 2007. -500 с.

1. Asaka tumanida kollektivlashtirish, quloqqa tortish va uning oqibatlar.

1929 yil oxiridan boshlangan kollektivlashtirish, dehqonlarning asosiy ommasiga nisbatan zo'ravonlik va majbur qilishlik, qo'rqitish, repressiya, qatag'on qilish sharoitida olib borildi. Kolxoz qurilishi juda ham ziddiyatli tarzda rivojlanib bordi. Bir tomondan haqiqatdan ham kambag'al-batraklarning bir qismini kolxoz uchun ixtiyoriy harakat qilishlari ma'lum shaklda yuz bergan. Ammo ikkinchi tomondan ma'muriy bosim, tazyiq, zo'rlash, o'rtahol dehqonlarni «qamchilash», orqali kollektivlashtirish yo'liga tazyiq bilan tortish jarayoni kechgan. Bunday bo'lishiga ko'p jihatdan 1929 yil 7 noyabrda «Pravda»da I.V.Stalinning «Buyuk burilish yili» nomli maqolasi ham sabab bo'lgan edi. Maqolada real hayotiy voqelik va dalillarga qarama-qarshi tarzda bir qator rayonlarda dehqonlar ommasining asosiy qismini eski, kapitalistik taraqqiyot yo'lidan yangi sotsialistik taraqqiyot yo'liga burib yuborishga erishildi, dehqonlarning o'zida tub burilish yuz berdi, dehqonlar o'z orqasidan kambag'al va o'rtahollarning keng qatlamini ergashtirish, uyushtirishga erishdilar degan hom, hayoliy fikrlar bayon qilingan edi.

Aslida esa o'shanda dehqonlar ommasi ongida hali kolxozlar foydasi uchun burilish mutlaqo sodir etilmagandi. Bunday o'zgarish o'rtahollar u yoqda tursin, hatto kambag'allarning ko'pchiligida ham yuz bermagan edi. Rasmiy statistika ma'lumotiga qaraganda 1929 yil 1 oktyabrda kolxozlar safida dehqon xo'jaliklarining umumiy miqdorining atigi 7,6 foizigina bor edi holos. Bu degani, barcha dehqon xo'jaliklarining 35 foizini tashkil qilgan¹.

Kambag'al-batrak xo'jaliklar kolxozga kirmagan edi. Hatto, bordi-yu, kolxozlar faqat kambag'al va batraklardangina tuzilgan edi, deb qaraladigan bo'lsa, u holda o'sha kolxozlarga kirgan 7,6 foiz kambag'al-batraklarning to'rtidan bir qismini tashkil etgan edi. Shuning uchun Stalinning «dehqonlar kolxozga qarab yo'l oldi, butun qishloqlar, volastlar, rayonlar» kolxozga kirdilar deb aytgani haqiqatdan tamomila uzoqda edi. Stalinning ana shu fikridan partiya ana «sotsialistik frontning eng og'ir jabhasida hal qiluvchi g'alabani qo'lga kiritdi» degan yolg'on tushunchaga kelgan edi.

VKP(b) Markaziy Komitetining 1929 yil noyabr plenumi kollektivlashtirish sur'atini har jihatdan tezlashtirish, jadallashtirishga va bu jarayonning borishiga bevosita ta'sir qildi. Kolxoz qurilishi masalalari muhokama-qilingan bu plenum asossiz ravishda optimistik ruhda o'tgan, arzimasi kichik yutuqlar haspo'shlanib maqtalgan, kollektivlashtirishdagi kamchiliklar va qing'ayishlar inkor etilgan ruhda o'tgan.

VKP(b) Markaziy Komiteti 1930 yil 5 yanvarda «Kollektivlashtirish sur'ati va kolxoz qurilishiga davlat yordami berish tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qiladi. Unga muvofiq kollektivlashtirishni sun'iy tezlashtirish va bu borada «sotsialistik musobaqa»ning kim o'zdi «poygasi» avj oldiriladi.

Mamlakat hududi uch guruh rayonlarga bo'linadi, qaysi hudud qachon kollektivlashtirishni tugallashi belgilab beriladi. O'zbekiston uchinchi guruhga kiritilgan bo'lib, kollektivlashtirish 1933 yil bahorida tugallanishi kerak edi. Ammo VKP(b) Markaziy Komitetining Siyosiy byurosi tomonidan O'zbekistonda kollektivlashtirish juda sekin rivojlanayotgani tanqid ostiga olinadi. Bu esa Markazning O'rta Osiyodagi yugurdak dastyori, bosh nazoratchisi O'rta Osiyo byurosi uchun ayni muddao bo'ladi. Shu bois u kollektivlashtirish va bu bilan parallel ravishda quloqqa tortish kampaniyasini avj oldirib yuboradi. O'rta Osiyo byurosi mintaqadagi milliy kompartiyalar ustidan hukmronlik qilardi. Shu bois Markaz direktivasini O'zbekiston Kompartiyasi va hukumati qanchalik zudlik bilan «qoil-maqom» qilib bajarsa, shunchalik O'rta Osiyo byurosining Moskva oldida yuzi yorug' bo'lardi. Natijada Markaz direktivasini bajarish niqobi ostida O'zbekistonda ham kollektivlashtirish jadal sur'atlar bilan, mahalliy, milliy, tarixiy sharoitlarni hisobga olmagan holda, bir qator buzishlar, qing'ayishlar, hato va nuqsonlar orqali amalga oshirildi.

¹ Шамсутдинов Р. Мамажонов. А. Шимолий Кавказга сургун =илинган юртдошлар =исмати. «Шар=». Тошкент. 2005 йил. Б.55

VKP(b) Markaziy Komiteti O`rta Osiyo byurosi 1930 yil 28 yanvarda quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bog`liq tadbirlar to`g`risida qaror qabul qiladi. Shundan O`zbekistonda kolxozlashtirish va quloq qilish kampaniyasi kuchaygandan kuchayadi. O`sha qarorda «kollektivlashtirish uchun kambag`al, o`rta hol, keng dehqonlar ommasining harakati inkor etib bo`lmas dalil va qishloq xo`jaligini rekonstruksiya qilish va yuksaltirishning kuchli tayanchi bo`lib qoldi»<sup>1</sup> deyilgan g`irt asossiz, sub'ektivistik fikr qaror maqomida ilgari suriladi.

Qarorda kolxozchilik harakati ko`p jihatdan qishloq xo`jaligini tez sur`atlar bilan texnikaviy (traktorlarni, murakkab qishloq xo`jalik mashinalarini joriy etish) jihatdan qayta qurollantirishga asoslanishi, dehqonlarning ommaviy harakati asosida bir qator rayonlarda yoppasiga kollektivlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar etildi, degan ko`zbo`yamachi, noreal g`oya ilgari surilgandi.

Ana shu «ommaviy harakat» degan aqida asosida yoppasiga kollektivlashtirish o`tkaziladigan rayonlar ham belgilab beriladi. Unga ko`ra, jumladan O`zbekistonning Farg`ona vodiysi rayonlarida yoppasiga kollektivlashtirish o`tkaziladigan bo`ladi.

Kollektivlashtirish o`tkaziladigan bu rayonlarda partiyaviy rahbarlik kuchaytiriladi, buning uchun markaz va okruglarga rahbar xodimlar yuboriladi, har bir rayonda 3 kishidan iborat partiyaviy rahbarlar tayinlanadi, qishloq partiya yacheykalari kotiblariga maosh to`lash joriy etiladi. Butun partiya ishini kolxoz qurilishiga muvofiqlashtirish vazifasi qo`yiladi.

Yuqoridan berilgan ko`rsatmaga muvofiq qishloq kambag`allar ommasini uyushtirish, ularning uyushqoqligini, faolligini, jipsligini ta`minlash, quloqqa tortish va ularni yoppasiga kollektivlashtirilayotgan rayonlardan badarg`a qilish, tugatilgan quloq xo`jaliklari mulki ustidan qat`iyan nazorat o`rnatish, o`rta hol dehqonlar orasida targ`ibot olib berish, kolxoz tuzishga qaratilgan ommaviy harakatni yuzaga keltirish, bunga halaqit berayotganlarga, qarshi turganlarga uyushgan zarba berish vazifa qilib qo`yiladi.

Qarorda kolxoz tuzilishi uch shaklda olib boriladigan bo`lgan. Birinchisi qishloq xo`jalik ishlab chiqarish shirkati bo`lib, unda butun qishloq, xo`jaligi inventarlari, ot-ulov, tortuv kuchlari va erni birgalashib ishlovchilar umumlashtirilgan. Ikkinchisi qishloq xo`jaligi arteli bo`lib, bunda barcha ishlab chiqarish vositalari, er va butun ishlab chiqarish jarayoni umumlashtirilgan. Uchinchisi qishloq xo`jalik kommunasi bo`lib, u ijtimoiy ishlab chiqarish va taqsimotdan iborat bo`lgan.

Qarorda ko`rsatilishicha dala ishlari boshlangunga qadar kolxozlar tuzish masalasi bilan bog`liq barcha tadbirlar tuzilajak kolxozlar hududlarida amalga oshirilishi kerak edi.

Quloq-boy ekspluatator unsurlarni er, mehnat qurollari va ishlab chiqarish vositalaridan mahrum qilish muhim vazifa qilib qo`yilgan edi. Ayni vaqtda quloqlarni sinf sifatida tugatishning aniq ifodalangan tamoyillari ham qarorda o`z aksini topgan edi. Birinchidan, barcha quloq xo`jaliklari, yakka soliq to`lovchilar, ekspluatatorlar xo`jalik belgisi bo`yicha saylov huquqidan mahrum qilinganlar tugatilishi ko`zda tutilgan. Ikkinchidan, quloqlardan sug`orma erlari, hovli-joyi, dalalardagi dov-daraxtlari, ishchi va chorva hayvoni, oziq-ovqat, murakkab qishloq xo`jalik inventari, qayta ishlovchi ishlab chiqarish, korxonalari tortib olinib, kolxozlarning bo`linmas fondlariga berilishi, chorikorlik bilan bog`liq barcha bitimlar, qarz majburiyatlari quloqlar xo`jaligi bo`yicha, shuningdek, sudxo`rlik majburiyatlari bekor qilinishi ham ko`zda tutilgan. Uchinchidan, chek erlardan va ishlab chiqarish vositalaridan mahrum qilingan quloq xo`jaliklari yoppasiga kollektivlashtirish rayonlaridan ko`chirib yuborilishi, kolxozlashtirishga qarshi faol kurash olib boruvchi ashaddiy quloqlar jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak edi. Quloq xo`jaliklarining qolgan boshqa toifadagilariga lalmikor, bahorikor joylardan chek er va mehnat normalari berilishi, ayrim hollarda yoppasiga kollektivlashtirish rayonlaridan tashqarida bo`lgan cho`l-dasht zonalardan sug`orma erlar ham berilib, bu erlarni paxta etishtirish uchun o`zlashtirilishi lozim edi.

Tugatilgan quloq xo`jaliklariga erdan foydalanish huquqi berilgan bo`lsa-da, ularning yollanma mehnatdan foydalanishi mutlaqo man qilib qo`yilishi ham ko`rsatilgandi.

¹ Шамсутдинов Р. Мамажонов. А Шимолий Кавказга сургун =илинган юртдошлар =исмати. «Шар». Тошкент. 2005 йил. Б.56

Chek er olgan quloq xo'jaliklari er organlari ko'rsatmasi bo'yicha dehqonchilik qilib tovar mahsulotini topshirish uchun davlat oldida majburiyatlar olishlari ham qarorda qayd etilgan edi.

Markazning «tanqidiy xulosalari» va O'rta Osiyo byurosining qistovi, talabi bilan O'zbekiston sovet hukumati va komfirqasi respublikada kollektivlashtirishni yuqori sur'atlarda, ommaviy safarbarlikda olib borishga nihoyatda chiranib harakat qilishga majbur bo'lgan. Bunday qilmaslikning iloji ham yo'q edi, aks holda antipartiyaviy yorliq yopishtirilardi. Bunda real siyosiy vaziyat, qishloq aholisining kayfiyati, talabi, hatto ayrim milliy arboblarning fikr-mulohazalari, mahalliy sharoit, milliy, diniy tarixiy holat, an'ana, asriy urf-odat, qadriyatlar e'tiborga olinmadi.¹ Buning yorqin misoli sifatida O'zbekiston Komfirqasi Markaziy Komiteti tomonidan 1930 yil 17 fevralda qabul qilingan «Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida»gi qarorini ko'rsatib o'tish joizdir. Ana shu qarorda O'zbekiston partiya tashkiloti rahbarligining asosiy aybi va hatolari o'z ifodasini topgan edi. Komfirqa rahbari Akmal Ikromov Ittifoqning eng ilg'or hududlariga etib olish va ulardan o'zib ketishga intilgan edi. Masalan, u Samarqand partiya tashkiloti konferentsiyasida 1930 yil bahorgi ekish kampaniyasigachayoq kollektivlashtirish Farg'ona vodiysida tugallanadi, biz orqada qolgan rayon bo'lsak-da, lekin qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish sur'atlari bo'yicha orqada qolishni o'ylamaymiz, deb aytgan. Buning hayotda joriy etilishini O'zbekistondagi ayrim rayonlari bo'yicha shoshma-shosharlik bilan o'tkazilgan kollektivlashtirish sur'atidan ham bilsa bo'ladi.

Mahalliy hokimiyat organlari Markaz ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarish uchun kollektivlashtirishning boshida turib, ko'proq majburlash, zo'ravonlik usullariga e'tiborni kuchaytirdilar.

Boshqa tumanlarda ham kuzatilgani kabi Asaka tumanida ham kollektivlashtirish jarayonida ming yillar davomida shakllangan dehqonchilik bilan bog'liq qadriyatlar va an'analar qo'pollik bilan toptaldi. Mahalliy rahbarlar raqamlar ortidan quvib, kollektivlashtirish kampaniyasini zo'ravonlik bilan amalga oshira boshladilar. Qishloq aholisining badavlat, o'ziga to'q qatlamlariga qarshi quvg'in uyushtirildi, dehqonlar majburan kolxozlarga kiritila boshlandi. Kolxozga kirishni hoxlamaganlar ham «quloq» qilib yuborildi.

Kollektivlashtirishni bunday sun'iy tarzda kuchaytirish, dehqonlarga kuch ishlatish, majburlash natijasida 1930 yil o'rtalariga kelib Asaka tumanida kolxozlarning soni 90 taga etdi. Tumandagi dehqon xo'jaliklarining 44,1 foizi kolxozlarga birlashtirildi. Umuman olganda esa jami dehqon xo'jaliklari 14522 ta bo'lib, ularda 13682 tasi kolxozlarga kiritilgan, Kollektivlashtirish ko'rsatkichi 94,2 foizni tashkil qilgan.²

Kollektivlashtirish bilan bir paytda «quloq» qilish kampaniyasi ham keskin sur'atda amalga oshirildi. Eng achinarlisi bu kampaniyani o'tkazishda qonunsizliklar yuz berdi, zo'ravonlik usullari qo'llanildi. «Quloqlar»ga qarshi kurash shiori ostida asosan tadbirkor, ishbilarmon xo'jaliklarga qarshi yalpi urush e'lon qilindi. Hatto dehqonlar dindorligi uchun ham, ma'muriyatdan norozi bo'lgani uchun ham «quloq» qilindilar. O'ziga to'q xo'jaliklarga qarshi kurashning ommaviy ko'rinishi ularni saylov huquqidan mahrum qilish edi. 1930 yil avgust oyigacha Asaka tumani bo'yicha 50 dehqon xo'jaligi saylov huquqidan mahrum qilingan. Ularning aksariyati mulla, imom yoki dindorligi uchungina shunday jazoga loyiq ko'rilgan. Huquqni poymol qilish va zo'ravonliklar faqat «quloq» xo'jaliklarigagina emas, balki qishloqning barcha qatlamlariga nisbatan ham qo'llanildi.

1930 yil mart oyiga kelib, butun respublikada kollektivlashtirishga qarshi dehqonlarning norozilik harakatlari avj oldi. Andijon okrugining ayrim tumanlarida ommaviy chiqishlar yuz berdi. Farg'ona vodiysidagi xalq ommasining chiqishlari sovet hokimiyatiga qarshi siyosiy kurashlar tusini oldi. Butun respublikada bo'lganidek, Asaka tumanida ham majburan tashkil

¹ Шамсутдинов Р. «ишло= фожеаси: коллективлаштириш, =уло=лаштириш, сургун. (Ырта Осиё республикалари мисолида) Т., Шар=, 2003. 54-82 бетлар.

² Андижон тарихидан лавжалар. «Andijon nashriot-matbaa» Андижон. 2008. Б. 227

qilingan kolxozlar tarqalib keta boshladi. 1930 yilning 1 mayiga kelib Asaka tumanida dehqon xo'jaliklarining faqat 10 foizi kolxozlarda qoldi, qolgan xo'jaliklar kolxozlardan chiqib ketdilar.¹

Respublikadagi kolxozlarga qarshi ommaviy harakatning, inqilobiy chiqishlarning tavsifini o'sha vaqtdayoq rasmiy doiralar taxlil etishgan. Yoppasiga kollektivlashtirish uchun belgilangan rayonlar avvaldan kollektivlashtirishga tayyorlangan emas. Kollektivlashtirishning belgilangan sur'atlari rahbariyatning apparatchiligi natijasi, joylardan olingan axborotlarga etarli darajada tanqidiy yondoshmaslik, kollektivlashtirish rejalarini tuzishdagi idoraparastlik natijasi bo'lgan. Eng asosiy sabab, bir tomondan kollektivlashtirish foizini belgilashda xaddan tashqari katta ko'lamlilik va kolxozlarning oliy shakliga (kommuna) sakrab o'tib ketishlar bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, quloqlarni sinf sifatida tugatish shiorini kollektivlashtirishdan ajratib tashlab, mustaqil vazifa deb qarash bo'lgan.²

Mahalliy partiya rahbarlarining eng asosiy xatosi kollektivlashtirishning yuqori foizlari ortidan quvib eng ilg'or rayonlarga etib olish ulardan o'zib ketishga intilish bo'lgan. Bu esa respublika markazining okruglarga kolxoz qurilishi sohasida noto'g'ri yo'l-yo'riqlar berishlariga olib kelgan. Bu xol o'z navbatida xalq ommasi noroziligining yanada ortib borishiga sabab bo'lgan.

Andijon okrugi Namangan rayonida ruxoniylar kolxozlarga qarshi faol targ'ibot olib borib dehqonlarning katta guruhini o'z ta'siriga olganlar, Asaka va Marhamat rayonlarida dehqonlar ommaviy ravishda o'z erlaridan voz kechganliklari haqida ariza berganlar. Bunday arizalar 150 taga etgan.³

Kollektivlashtirishdagi qonunbuzarlik va xaddan oshishlar tufayli bir qator okrug va rayonlarda kambag'al-o'rtahollar qatlami orasida ham kollektivlashtirishga qarshi salbiy kayfiyat ortib borishi, ommaviy ravishda kolxozlardan chiqib ketish va kollektivlashtirishni inkor etish yuz bergan. Andijon okrugida butun bir qishloq, hatto qishloq sovetlari kolxozga kirishdan bosh tortgan.

Baliqchi rayonida bir guruh kambag'al va o'rtahol dehqonlar 1930 yil 20 fevralida Polvonko'l qishlog'ida kolxoz tuzishga bag'ishlangan umumiy majlisni bekor qilganlar.

Kollektivlashtirish va quloq qilishga qarshi Andijon okrugi dehqonlarining 1930 yil fevralidan 12 martgacha bo'lgan davrdagi chiqishlari OGPUning ma'lumotlarida quyidagicha tahlil qilingan:

“1) Andijon okrugi Lenin rayonida 1 mart kuni raykom binosiga 300 kishilik olomon kelib diniy marosimlarni o'tkazishga ruxsat berilishini talab qiladi. Olomondagilar baqiriq-chaqiriq bilan o'zlarining ichidagi sobiq faol bosmachining “Nikolay zamonida boylar sovet hokimiyatidagidek ta'qibga uchramagandilar va azobga solinmagandilar” degan ovozi qo'llab-quvvatlab chiqdilar.

2) Asaka va Marxamat rayonlarida 1 mart kuni uchta qishloq kolxozga kirishdan butunlay bosh tortdi. 50 kishilik olomon Lug'umbekdagi paxta sotib olish punktiga kelib nima uchun kolxozga kirish majburiy ekanini tushuntirib berishni talab qilgan.

3.) Asaka shahri. 10 mart. Tosh tepa, qisman Andijon rayonlarida ahvol nixoyatda og'ir. Hamma joyda yuzaga kelgan shiorlar bir xil, g'irt aksilinqilobiydir. Bugun yoppasiga kollektivlashtirilgan 19ta qishloq sovetlari nomidan yuborilgan vakillar Andijonga kelib: “Kolxozlarni tarqatib yuborish”, “Kolxozchilar va xaqsizlar ro'yxatini berish”, “Kambag'allar tashkilotlari va yig'inlarini tugatish”, “Xaqsizlar huquqlarini tiklash”, “Qamoqqa olingan quloqlarni ozod qilish”ni talab qilganlar.

4) Shahrixon rayoni. 12 mart kuni Shahrixonidagi paxta zavodiga Buvayda, Yuqoriariq, Shahrixon qishloq sovetlaridan 100 kishilik olomon kelgan. Ular “xaqsizlar huquqi tiklansin”, “Qishloq sovetlari qoshida qamalganlar ozod qilinsin”, “Erkin savdoga ruxsat berilsin”,

¹ Шамсутдинов Р. +ишло= фожеаси: коллективлаштириш, =уло=лаштириш, сургун. (Ырта Осиё республикалари мисолида) Т., Шар=, 2003.

² Шамсутдинов Р. +ишло= фожеаси: коллективлаштириш, =уло=лаштириш, сургун. (Ырта Осиё республикалари мисолида) Т., Шар=, 2003. Б.126

³ Ыша жойда. Б.127

“Kolxozlar tarqatib yuborilsin va ish hayvonlari qaytarilsin”, “Qishloq sovetlariga qayta saylovlar oʻtkazilsin” kabi talablarni qoʻyganlar. Suhbatda kolxozlarni tarqatib yuborish toʻgʻrisida koʻrsatma berilgandan soʻng olomon tarqala boshlagan.”¹

Umuman olganda, qishloq axolisining bunday ommaviy chiqishlari 12 mart kuni Andijon okrugidagi Marhamat rayonidan tashqari 12ta rayonida yuz bergan.

1930 yil 13 mart kuni Asaka rayoni Qoratepa qishlogʻida 1000 kishilik olomon “Yoʻqolsin kolxozlar”, “Yoʻqolsin sovetlar hokimiyati” degan shiorlar bilan rayon markaziga yoʻl olgan. Olomon safi kengayib 2500 kishigacha etadi va ular kolxozlarni tarqatish, ularni qaytarib berish, qamoqqa olinganlarni ozod qilish, xaqsizlar huquqini tiklash, diniy erkinlikni taʼminlash kabi talablarni qoʻyganlar. Qishloq axolisining bunday chiqishlari 13 mart kuni Izboskan rayoni Xayrobod qishlogʻida, Norin rayoni Shoʻrariq qishlogʻida, 15 mart kuni Asaka rayonidagi Xonobod qishlogʻida ham yuz berdi. Umuman, 1930 yilning 25 fevralidan 17 martgacha Andijon okrugining rayonlarida qishloq axolisining 36ta ommaviy norozilik harakatlari yuz bergan va bu harakatlarda 9373 kishi ishtirok etgan.²

Andijonda ommaviy norozilik harakatlarining keskin oʻsib borishi bilan bir qatorda respublikaning boshqa okruglarida ham Kollektivlashtirishga qarshi jiddiy chiqishlar yuz bera boshladi. OGPuning maʼlumotlariga koʻra, respublikada bu davrda 240 marta ommaviy norozilik chiqishlari sodir boʻlgan.³

Yoppasiga Kollektivlashtirish siyosatining bunday barbod xolga kelib qolishi partiya rahbariyatini ham tashvishga solib qoʻydi. 1930 yil 2 martda «Pravda» gazetasida Stalinning «Yutuqlardan esankirash» nomli maqolasi bosilib chiqdi. Maqolada ommaviy noroziliklar uchun hamma ayblar mahalliy rahbarlarga yuklandi 1930 yilning 14 martida esa VKP(b) Markaziy Komitetining «Kollektivlashtirish harakatida partiya yoʻlini buzishlarga qarshi kurash toʻgʻrisida» qarori eʼlon qilindi. Bu qarorda kollektivlashtirish harakatida «ixtiyoriylik printsiplari» buzilganligi va «ogʻmachiliklar» yuz bergani tan olindi. Shuningdek, ayrim amaliy tadbirlar ham koʻrilib, kollektivlashtirishni jadallashtirish surʼatlari sekinlashtirildi. 1930 yilning mart-aprel oylarida «quloq qilish» qisman toʻxtatildi. Barcha rayonlarda, qishloq sovetlarida quloq qilingan va huquqlardan mahrum etilganlarning roʻyxatini tekshirish boʻyicha komissiyalar tashkil etildi. Bu roʻyxatga tushgan ayrim oʻrta hol dehqonlarning fuqarolik huquqlari tiklandi.

Bu xolatlarning barchasi sovet davlatining oʻzbek qishlogʻida, jumladan Andijon viloyati Asaka tumanida amalga oshirgan zoʻravonlik siyosati oqibatida yuz bergan edi. Lekin bu xolat uzoq davom etmadi. Sovetlar qisqa muddatli tanaffusdan soʻng kollektivlashtirish siyosati amaliyotining yangi toʻlqinini boshlab yubordi. Ommaviy norozilik harakati tashkilotchilari va faor qatnashchilari OGPU organlari tomonidan qamoqqa olindi. Jumladan, Andijon okrugida boʻyicha aksilinqilobiy faoliyat koʻrsatganlikda ayblangan 607 kishi xibsga olingan. Xibsga olinganlarning 257 nafari boylar, 31 nafari ruxoniylar, 22 nafari savdogarlar, 54 nafari oʻrtahol dehqonlar, 33 nafari kambagʻal dehqonlar boʻlgan, qolganlarining ijtimoiy taalluqliligi aniqlanmagan.⁴

Asaka tumanida “quloq” sifatida roʻyxatga olingan xoʻjaliklar soni tobora ortib borgan. Oʻsha davrga oid bir hujjatda 1930-1931 xoʻjalik yilida tuman boʻyicha 158 ta “quloq” xoʻjaligi borligi aytilgan. 1932 yili 13 noyabrda holat boʻyicha tumanda 290 nafar “quloq” xoʻjaligi boʻlgan.⁵

¹ Шамсутдинов Р. +ишло= фожеаси: жамоалаштириш, =уло=лаштириш, сургун. 140-142- бетлар.

² Шамсутдинов Р. +ишло= фожеаси: коллективлаштириш, =уло=лаштириш, сургун. (Ырта Осиё республикалари мисолида) Т., Шар=, 2003. 154-бет.

³ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида 352-бет

⁴ Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка. 1929-1955 гг. Документы и материалы. Том 1. стр.216.

⁵ Шамсутдинов Р. +ишло= фожеаси: коллективлаштириш, =уло=лаштириш, сургун. (Ырта Осиё республикалари мисолида) Т., Шар=, 2003. 302-бет.

1931 yildan e'tiboran Marhamat tumanida ham "quloq" xo'jaliklarini tugatish va surgun qilish tadbirlari avj oldi. Ro'yxatga olingan xo'jaliklarning butun mol-mulki: uy-joyi, er-suvi, uy-ro'zg'or asbob-anjomlari, chorva hayvonlari davlat foydasiga musodara qilinib, o'zlari tumandan tashqari hududlarga ko'chirib yuborilganlar. "Quloq" xo'jaliklari toifalari bo'yicha O'zbekistondan tashqariga, boshqa viloyat va tumanlar hududidagi maxsus posyolkalarga surgun qilinganlar. 1932 yilning 28 mayigacha Asaka tumanidan 142 ta "quloq" xo'jaligi oila a'zolari bilan birga respublikadan tashqariga, boshqa o'lkalarga surgun qilib yuborilgan. Ularning umumiy soni 635 kishi bo'lib, ulardan 197 nafari erkaklar, 153 nafari bolalar bo'lgan.⁹ Respublikadan tashqariga surgun qilingan xo'jaliklar asosan Ukrainaning Xerson viloyatining cho'l zonalariga, Shimoliy Kavkaz o'lkasiga, qisman G'arbiy Sibir va Shimoliy Qozog'istonning o'zlashtirilmagan hududlariga joylashtirilganlar. Ikkinchi va uchinchi toifa bo'yicha "quloq" qilinganlar respublikaning ichki hududlaridagi chekka tumanlarga ko'chirilganlar. Ushbu toifa bo'yicha "quloq" qilinganlarning aksariyati Bekobod tumanidagi "Dalvarzin", Qo'rg'on tepa tumanidagi "Savay", Uchqo'rg'on tumanidagi "Norin" mehnat posyolkalariga ko'chirilganlar. Asaka va Marxamat tumanlaridan turli toifalar bo'yicha "quloq" qilingan va surgun qilingan xo'jaliklarning aniq miqdori ma'lum emas. Chunki bu jarayon bir necha yil, hatto kollektivlashtirish yakunlanganidan keyingi yillarda ham davom etgan. Qolaversa, bu masalaga dahldor hujjatlar ham to'la saqlanmagan. Biz arxivlarda saqlanib qolgan hujjatlar asosida 1930-1932 yillarda Asaka tumani hududlaridan "quloq" sifatida ro'yxatga olingan va turli ma'muriy-huquqiy jazolarga tortilgan 190 nafar kishining nomlarini aniqlashga muvaffaq bo'ldik. Bu kishilar totalitar tuzum sharoitida sovet hukumati amalga oshirgan majburiy kollektivlashtirish davrida nohaqdan jazolandilar. Ular ishbilarmonligi, tadbirkorligi uchungina "quloq" deb topilib, insoniy haq-huquqlari poymol qilindi.

Totalitar sovet davlati qulaganidan keyin sovet davri tarixining qayta o'rganilishi natijasida qishloq xo'jaligini yoppasiga kollektivlashtirish amaliyoti eng sharmandali siyosat ekanligi ma'lum bo'ldi. Majburiy o'tkazilgan bu siyosat o'zbek xalqi boshiga cheksiz kulfatlar keltirdi, ko'plab fojealarga sabab bo'ldi.

Ommaviy kolxoz qurilishi amalga oshirilishi sharoitida ekish masalasida mutlaqo o'ylab-netmay ish ko'rilgan, tashkil bo'layotgan kolxozlarda bahorgi ekishga hech kim tayyorgarlik ko'rish bilan shug'ullanmagan.

Okrugdagi barcha bozorlar dehqonlarning sotadigan hayvonlari bilan to'lib-toshib ketgan. Hayvon narxi 30-50 foizga tushib ketgan, 200 so'm to'radigan otning bahosi 100-120 so'mga tushib qolgan. Aholini qamrab olgan vahima-sarosima shu qadar kuchliki, ayrim qishloqlarda hayvonni qarzga sotib yuborish boshlanib ketgan.¹

O'zbekistonda ham bolsheviklarning kollektivlashtirish siyosati oqibatida dehqonlar oldida ko'ndalang ikki yo'l turardi: biri kolxozga kirish, ikkinchisi quloqlar ro'yxatiga tushib qolish. Dehqonlarga nisbatan qo'llanilgan jazoning eng engil turi saylov huquqidan mahrum qilish edi. O'sha ro'yxatga tushganlar kelgusida quloq qilish uchun birdan-bir asos edi. Shu bois dehqonlar ana shu qabih ro'yxatga tushmaslik uchun kurashganlar. Buni uddasidan chiqolmagan dehqonlar kolxozga kirishga majbur bo'lganlar. Bu esa kolxozlashtirishda qo'lga kiritilgan «yutuq» hisoblanardi. Bunday manzarani joylarda tashkil etilgan kolxozlar misolida ko'rish mumkin.

Xullas, O'zbekistonning barcha hududlari qatori Farg'ona vodiysi okruglarida hokimiyat organlari tomonidan yoppasiga kolxozlashtirish deyarli fuqarolar urushi qonunlari asosida, harbiycha, mirshablikcha usul va yo'llar orqali, zo'ravonlik bilan amalga oshirildi. Bu jarayon qishloq aholisini g'azab-nafratga keltirdi. Butun «sovet qishloqlari» jo'nbo'shga kelgan edi. Ana shu vaqtda Stalinning «Yutuqlardan esankirash» nomli maqolasi «Pravda»da 1930 yil 2 marta e'lon qilindi. Unda kollektivlashtirishdagi butun «qing'irliklar» uchun ayb mahalliy xodimlarga to'nkaldi.

¹ Шамсутдинов Р. «Ишло=фожеаси: коллективлаштириш, =уло=лаштириш, сургун. (Ырта Осиё республикалари мисолида) Т., Шар=, 2003. 302-бет.

Bundaylarga qarshi qattiq choralar ko'rish ko'zda tutildi. Ayni vaqtda kollektivlashtirish va quloqqa tortish borasida ma'lum yon berishlar kelib chiqdi. Oqibatda kollektivlashtirish ham, quloqlashtirish ham biroz sekinlashtirildi. Joylarda quloq qilingan va huquqlardan mahrum etilganlarning ro'yxatini tekshirish bo'yicha komissiyalar tashkil etildi. Ro'yxatga tushgan o'rtahol dehqonlarning fuqarolik huquqlari tiklandi, hatto ulardan tortib olingan chorvasi, va mol-mulkleri qaytarib berildi.

Kollektivlashtirish bilan bir paytda "quloq" qilish kampaniyasi ham keskin sur'atda amalga oshirildi. Eng achinarlisi bu kampaniyani o'tkazishda qonunsizliklar yuz berdi, zo'ravonlik usullari qo'llanildi. "Quloqlar"ga qarshi kurash shiori ostida asosan tadbirkor, ishbilarmon xo'jaliklarga qarshi yalpi urush e'lon qilindi. Hatto dehqonlar dindorligi uchun ham, ma'muriyatdan norozi bo'lgani uchun ham "quloq" qilindilar. O'ziga to'q xo'jaliklarga qarshi kurashning ommaviy ko'rinishi ularni saylov huquqidan mahrum qilish edi. 1930 yil avgust oyigacha Asaka tumani bo'yicha 50 dehqon xo'jaligi saylov huquqidan mahrum qilingan.¹ Ularning aksariyati mulla, imom yoki dindorligi uchungina shunday jazoga loyiq ko'rilgan. Huquqni poymol qilish va zo'ravonliklar faqat "quloq" xo'jaliklarigagina emas, balki qishloqning barcha qatlamlariga nisbatan ham qo'llanildi.

1930 yil mart oyiga kelib, butun respublikada kollektivlashtirishga qarshi dehqonlarning norozilik harakatlari avj oldi. Andijon okrugining ayrim tumanlarida ommaviy chiqishlar yuz berdi. Farg'ona vodiysidagi xalq ommasining chiqishlari sovet hokimiyatiga qarshi siyosiy kurashlar tusini oldi. Butun respublikada bo'lganidek, Asaka tumanida ham majburan tashkil qilingan kolxozlar tarqalib keta boshladi. 1930 yilning 1 mayiga kelib Asaka tumanida dehqon xo'jaliklarining faqat 10 foizi kolxozlarda qoldi, qolgan xo'jaliklar kolxozlardan chiqib ketdilar.²

Respublikadagi kolxozlarga qarshi ommaviy harakatning, inqilobiy chiqishlarning tavsifini o'sha vaqtdayoq rasmiy doiralar taxlil etishgan. Yoppasiga kollektivlashtirish uchun belgilangan rayonlar avvaldan kollektivlashtirishga tayyorlangan emas. Kollektivlashtirishning belgilangan sur'atlari rahbariyatning apparatchiligi natijasi, joylardan olingan axborotlarga etarli darajada tanqidiy yondoshmaslik, kollektivlashtirish rejalarini tuzishdagi idoraparastlik natijasi bo'lgan. Eng asosiy sabab, bir tomondan kollektivlashtirish foizini belgilashda xaddan tashqari katta ko'lamlilik va kolxozlarning oliy shakliga (kommuna) sakrab o'tib ketishlar bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, quloqlarni sinf sifatida tugatish shiorini kollektivlashtirishdan ajratib tashlab, mustaqil vazifa deb qarash bo'lgan.

Mahalliy partiya rahbarlarining eng asosiy xatosi kollektivlashtirishning yuqori foizlari ortidan quvib eng ilg'or rayonlarga etib olish ulardan o'zib ketishga intilish bo'lgan. Bu esa respublika markazining okruglarga kolxoz qurilishi soxasida noto'g'ri yo'l-yo'riqlar berishlariga olib kelgan. Bu xol o'z navbatida xalq ommasi noroziligining yanada ortib borishiga sabab bo'lgan.

Asaka rayonida ruxoniylar kolxozlarga qarshi faol targ'ibot olib borib dehqonlarning katta guruhini o'z ta'siriga olganlar, mazkur rayonda dehqonlar ommaviy ravishda o'z erlaridan voz kechganliklari haqida ariza berganlar. Bunday arizalar 150 taga etgan.³

Kollektivlashtirishdagi qonunbuzarlik va xaddan oshishlar tufayli bir qator okrug va rayonlarda kambag'al-o'rtahollar qatlami orasida ham kollektivlashtirishga qarshi salbiy kayfiyat ortib borishi, ommaviy ravishda kolxozlardan chiqib ketish va kollektivlashtirishni inkor etish yuz bergan. Andijon okrugida butun bir qishloq, hatto qishloq sovetlari kolxozga kirishdan bosh tortgan.

Baliqchi rayonida bir guruh kambag'al va o'rtahol dehqonlar 1930 yil 20 fevralida Polvonko'l qishlog'ida kolxoz tuzishga bag'ishlangan umumiy majlisni bekor qilganlar.

¹ Шамсутдинов Р. +ишло= фожеаси: коллективлаштириш, =уло=лаштириш, сургун. (Ырта Осиё республикалари мисолида) Т., Шар=, 2003. 302-бет.

² Шамсутдинов Р. +ишло= фожеаси: коллективлаштириш, =уло=лаштириш, сургун. (Ырта Осиё республикалари мисолида) Т., Шар=, 2003. 302-бет.

³ Ыша жойда.

Kollektivlashtirish va quloq qilishga qarshi Asaka rayoni dehqonlarining 1930 yil fevralidan 12 martgacha bo'lgan davrdagi chiqishlari OGPUning ma'lumotlarida quyidagicha tahlil qilingan:

1) Asaka rayonida 1 mart kuni raykom binosiga 300 kishilik olomon kelib diniy marosimlarni o'tkazishga ruxsat berilishini talab qiladi. Olomondagilar baqiriq-chaqiriq bilan o'zlarining ichidagi sobiq faol bosmachining "Nikolay zamonida boylar sovet hokimiyatidagidek ta'qibga uchramagandilar va azobga solinmagandilar" degan ovozi qo'llab-quvvatlab chiqdilar.

2) Oqbo'yra va Zarbdor qishloqlari 1 mart kuni kolxozga kirishdan butunlay bosh tortdi. 50 kishilik olomon paxta sotib olish punktiga kelib nima uchun kolxozga kirish majburiy ekanini tushuntirib berishni talab qilgan.

3) Asaka rayon . 10 mart. Buston, Mustaxkam qishloq sovetlari nomidan yuborilgan vakillar Andijonga kelib: "Kolxozlarni tarqatib yuborish", "Kolxozchilar va xaqsizlar ro'yxatini berish", "Kambag'allar tashkilotlari va yig'inlarini tugatish", "Xaqsizlar huquqlarini tiklash", "Qamoqqa olingan quloqlarni ozod qilish"ni talab qilganlar.

Shuningdek ular "xaqsizlar huquqi tiklansin", "Qishloq sovetlari qoshida qamalanganlar ozod qilinsin", "Erkin savdoga ruxsat berilsin", "Kolxozlar tarqatib yuborilsin va ish hayvonlari qaytarilsin", "Qishloq sovetlariga qayta saylovlar o'tkazilsin" kabi talablarni qo'yganlar. Suhbatda kolxozlarni tarqatib yuborish to'g'risida ko'rsatma berilgandan so'ng olomon tarqala boshlagan."¹

Qishloq axolisining bunday ommaviy chiqishlari 12 mart kuni Andijon okrugidagi Marhamat rayonidan tashqari 12ta rayonida yuz bergan.

1930 yil 13 mart kuni Asaka rayoni Oqbo'yra qishlog'ida 1000 kishilik olomon "Yo'qolsin kolxozlar", "Yo'qolsin sovetlar hokimiyati" degan shiorlar bilan rayon markaziga yo'l olgan. Olomon safi kengayib 2500 kishigacha etadi va ular kolxozlarni tarqatish, erlarni qaytarib berish, qamoqqa olinganlarni ozod qilish, xaqsizlar huquqini tiklash, diniy erkinlikni ta'minlash kabi talablarni qo'yganlar. Bunday g'alayonlar 15 mart kuni Asaka rayonidagi Xonobod qishlog'ida ham yuz berdi. Umuman, 1930 yilning 25 fevralidan 17 martgacha Andijon okrugining rayonlarida qishloq axolisining 36ta ommaviy norozilik harakatlari yuz bergan va bu harakatlarda 9373 kishi ishtirok etgan.²

Andijonda ommaviy norozilik harakatlarining keskin o'sib borishi bilan bir qatorda respublikaning boshqa okruglarida ham Kollektivlashtirishga qarshi jiddiy chiqishlar yuz bera boshladi. OGPuning ma'lumotlariga ko'ra, respublikada bu davrda 240 marta ommaviy norozilik chiqishlari sodir bo'lgan.³

Yoppasiga Kollektivlashtirish siyosatining bunday barbod xolga kelib qolishi partiya rahbariyatini ham tashvishga solib qo'ydi. 1930 yil 2 martda «Pravda» gazetasida Stalinning «Yutuqlardan esankirash» nomli maqolasi bosilib chiqdi. Maqolada ommaviy noroziliklar uchun hamma ayblar mahalliy rahbarlarga yuklandi 1930 yilning 14 martida esa VKP(b) Markaziy Komitetining «Kollektivlashtirish harakatida partiya yo'lini buzishlarga qarshi kurash to'g'risida» qarori e'lon qilindi. Bu qarorda kollektivlashtirish harakatida «ixtiyoriylik printsiplari» buzilganligi va «og'machiliklar» yuz bergani tan olindi. Shuningdek, ayrim amaliy tadbirlar ham ko'rib, kollektivlashtirishni jadallashtirish sur'atlari sekinlashtirildi. 1930 yilning mart-aprel oylarida «quloq qilish» qisman to'xtatildi. Barcha rayonlarda, qishloq sovetlarida quloq qilingan va huquqlardan mahrum etilganlarning ro'yxatini tekshirish bo'yicha komissiyalar tashkil etildi. Bu ro'yxatga tushgan ayrim o'rta hol dehqonlarning fuqarolik huquqlari tiklandi.

Biroq ko'rilgan bu tadbirlarga qaramay zo'rlik bilan tashkil qilingan kolxozlar tarqalib keta boshladi. Andijon okrugida 1930 yil 18 martga kelib kolxozlarga kiritilgan 110,9 ming dehqon

¹ Шамсутдинов Р. +ишло= фожеаси: жамоалаштириш, =уло=лаштириш, сургун. 140-142- бетлар.

² Шамсутдинов Р. +ишло= фожеаси: жамоалаштириш, =уло=лаштириш, сургун. 154-бет.

³ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида 352-бет

xo'jaligidan faqat 28 ming xo'jalik kolxozlarda qoldi, xolos. Bu miqdor okrug bo'yicha barcha dehqon xo'jaliklarining 23,0 foizini tashkil etar edi. Okrugning Izboskan, Asaka, Yangiqo'rg'on, Marhamat, Andijon rayonlarida kolxozlarda qolgan xo'jaliklar faqat 10 foizni tashkil etar edi.¹ Respublika bo'yicha esa Kollektivlashtirish darajasi 1930 yil martidan may oyiga qadar 47,8 foizdan 27,5 foizga tushib qoldi.

Bu xolatlarning barchasi sovet davlatining o'zbek qishlog'ida, jumladan Andijonda amalga oshirgan zo'ravonlik siyosati oqibatida yuz bergan edi. Lekin bu xolat uzoq davom etmadi. Sovetlar qisqa muddatli tanaffusdan so'ng kollektivlashtirish siyosati amaliyotining yangi to'lqinini boshlab yubordi. Ommaviy norozilik harakati tashkilotchilari va faor qatnashchilari OGPU organlari tomonidan qamoqqa olindi. Jumladan, Andijon okrug bo'yicha aksilinqilobiy faoliyat ko'rsatganlikda ayblangan 607 kishi xibsga olingan. Xibsga olinganlarning 257 nafari boylar, 31 nafari ruxoniylar, 22 nafari savdogarlar, 54 nafari o'rtahol dehqonlar, 33 nafari kambag'al dehqonlar bo'lgan, qolganlarining ijtimoiy taalluqliligi aniqlanmagan.²

1930 yil sentyabr oyida VKP (b) MQ barcha o'lkalar, viloyat qo'mitalari va ittifoqdosh respubliklar kompartiyalari Markaziy Komitetiga «Kollektivlashtirish to'g'risida» maktub yo'llab, unda «kolxoz harakatini yangidan qudratli yuksaltirishga erishish» uchun dehqonlar orasida faol siyosiy va tashkilotchilik ishlarini avj oldirishni tavsiya qildi. Markazning partiyaviy direktivasida kollektivlashtirish sur'atlarini qayta tiklash, qishloq axolisini kolxozlarga xaydab kirish uchun yana sinab ko'rilgan ma'muriy buyruqbozlik usullaridan ham tap tortmaslikka da'vat etilgan edi. Bu ko'rsatmalarni bajarish yuzasidan shoshilinch tadbirlar Andijon okrugida ham avj olib ketdi. 1930 yil oktyabr oyida bo'lib o'tgan O'z KP(b) Andijon okrug komitetining VI plenumida kambag'al va o'rta hol dehqonlar siyosiy faolligini oshirish kollektivlashtirish harakatida xal qiluvchi faktor ekanligi alohida ta'kidlab o'tildi.

Bu xulosaga ko'ra Asaka tumanidagi kooperativlarda va kolxozlarda kambag'al-batraklar guruhlar sonini keskin oshirish bashlandi. Buni kuyidagi misollarda ham kurish mumkin, 1930 yilning mart oyidan dekabr oyiga qadar 297 kambag'al-batrak guruhlar tashkil qilindi. Ulardan 83 tasi sovet tashkilotlarida, 49 tasi matlubot kooperatsiyalarida, 59 tasi ishlab chiqarish hamkorligi uyushmalarida, 106 tasi kolxozlarda faoliyat ko'rsata boshladi.³ Bu guruhlarda 556 marta yig'ilishlar o'tkazilib, bahorgi ekin masalalari, «quloq» xo'jaliklarini aniqlash va xo'jaliklarini tugatish kabi tadbirlar muhokama qilindi.

Lekin bu holatlarga qaramay kollektivlashtirish harakati to'xtab qolmadi. 1931 yil bahoridan kollektivlashtirish va «quloq» qilishning yangi to'lqini boshlandi. «Quloq» xo'jaliklarini tugatishda iqtisodiy usullardan keng foydalanildi. Ya'ni o'ziga to'q, badavlat xo'jaliklarga katta miqdorda soliq solindi, bunday xo'jaliklar kredit, ssuda va boshqa imtiyozlardan mahrum qilindi.

Agar 1930-1931 xo'jalik yilida Asaka tumanining qishloq sovetlarida istiqomat qilayotgan 2777 dehqon xo'jaligi 54327 so'm 21 tiyin qishloq xo'jalik solig'i va suv haqi to'laganligiga e'tibor bersak, «quloq» xo'jaliklariga qanchalar og'ir majburiyat yuklanganligiga amin bo'lamiz. Tabiiyki, bunday majburiyat «quloq» xo'jaliklarini oxir-oqibatda xonavayron bo'lishiga olib kelardi. 1931 yilning avgust oyida Asaka tumani bo'yicha «quloq» xo'jaliklarini yangidan aniqlash tadbiri o'tkazildi. Tadbir davomida qishloq sovetlari bo'yicha quyidagi miqdorda yangi «quloq» xo'jaliklari ro'yxatga olingan:

Asaka tumanida «quloq» sifatida ro'yxatga olingan xo'jaliklar soni tobora ortib borgan. O'sha davrga oid bir hujjatda 1930-1931 xo'jalik yilida tuman bo'yicha 158 ta «quloq» xo'jaligi borligi aytilgan. 1932 yili 13 noyabrdagi holat bo'yicha tumanda 290 nafar «quloq» xo'jaligi bo'lgan.

Shu bois 1930 yilning kuzidan boshlab qishloqda dehqonlar ommasiga qarshi kurash, aytish mumkinki, fuqarolar urushi to'lqini yana yuzaga keldi. Kollektivlashtirish va u bilan birga

¹ Шамсутдинов Р. +ишло= фожеаси: жамоалаштириш, =уло=лаштириш, сургун. (Ырта Осиё республикалари мисолида) Т., «Шар=», 2003. Б.155.

² Ыша жойда. Б.156

³ Шамсутдинов Р. +ишло= фожеаси: жамоалаштириш, =уло=лаштириш, сургун. (Ырта Осиё республикалари мисолида) Т., «Шар=», 2003. Б.156.

quloqlashtirish sari yana hujum kampaniyasi boshlanib ketdi. 1931 yilning yoziga kelib dehqon xo'jaliklarining 56,7 foizi kollektiv xo'jaliklarga birlashtirildi, 1 dekabrda esa 68,2 foizga etdi. 1931 yilning bahoridan O'zbekistonda yalpi kollektivlashtirish va shu asosda quloqlarni sinf sifatida tugatish kampaniyasi qaytadan boshlandi.

2. «Katta terror» qurbonlarining hayot yo'li va taqdiri.

1937 yil 30 iyuldagi SSSR Ichki ishlar xalq komissari Nikolay Ejovning imzosi bilan “Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa antisovet elementlarini qatag'on qilish bo'yicha operatsiya to'g'risida” № 00447-sonli operativ mutlaqo mahfiy tamg'a ostidagi buyruqi¹ qabul qilindi. Unda antisovet uyushmalarini tergov qilish materiallarida avvalida qatag'on qilingan, qatag'on bo'lishdan yashirilib yurgan, lagerlardan, surgunlardan va mehnat posyolkalaridan qochib kelgan quloqlarning katta qismi qishloqlarda o'rnatilib qolgani qayd etilgan. Shuningdek cherkovchilar, sektantlar, siyosiy partiyalar, eserlar, dashnoqlar, mussavatchilar, ittihadchilar, banditlar, qo'zg'olonchilarning sobiq faol ishtirokchilari, oq jazochilar, reapatriontlar, turli xil jinoyatchilar, retsidivist-o'g'rilar, talonchilar, jazoni o'tab qamoqdan qochib kelib, qatag'on bo'lishdan yashirilib yurganlar ham qishloq va shaharlarda uya qurib olganliklari buyruqda ta'kidlangan. Ushbulardan kelib chiqib davlat xavfsizligi organlari oldiga ana shu antisovet elementlar bandasini hech ayamasdan tugatish, mehnatkashlarni, sovet xalqini ularning aksilinqilobiy hurujlardan himoya qilish va ularni sovet davlatining asosiga, negiziga qarshi qilgan ablaxona qo'poruvchiligini tag-tugi bilan abadul-abad yo'q qilish zarurligi o'sha buyruqda ko'rsatilgan.² Buyruqda operatsiyani 1937 yil 5 avgustdan boshlab to'rt oy muddatda yakunlash kerakligi ko'rsatilgan. O'rta Osiyo respublikalarida operatsiya 1937 yil 10 avgustdan boshlanadigan bo'lgan. Buyruq bilan respublikalar, o'lkalar va viloyatlar, “uchliklar” tarkibi ham tasdiqlangan. O'zbekiston SSR “uchligi” respublika Ichki ishlar xalq komissari N.A.Zagvozdin (rais), O'zbekiston kompartiyasi Markaziy komitetining birinchi kotibi Akmal Ikromov, Xalq komissarlar soveti raisining o'rinbosari Jo'rabek To'rabekov (a'zo)lardan iborat tasdiqlandi. “Uchlik” yig'ilishlarida O'zbekiston SSR prokurori Sheyndlin, kotib sifatida O'zSSR NKVD Davlat xavfsizligi boshqarmasi 8- bo'lim boshlig'i leytenant Yakovlev ishtirok etishi ko'rsatilgan. O'zbekistonda 1937 yil 10 avgustdan “Uchlik”ning yig'ilishlari boshlangan. Shu 10 avgustdan 1938 yil 1 yanvargacha O'zbekiston bo'yicha jami 10700 kishi qamoqqa olingan. Shundan 5924 kishi sobiq “quloqlar” 1679 kishi jinoyatchilar, 3097 kishi “sovetlarga qarshi unsurlar” sifatida qatag'on qilindi. Ulardan 3613 kishi 1-toifa bo'yicha otuvga, 7087 kishi 2-toifa bo'yicha 8-10 yil muddat bilan qamoq jazosiga xukm qilingan. Otuvga xukm qilinganlarning 1376 nafari sobiq quloqlar, 952 nafari jinoyatchilar va 1285 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo'lgan. 8-10 yilga xukm qilinganlarning 4548 nafari sobiq quloqlar, 727 nafari jinoyatchilar, 1812 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo'lgan.³ Ana shu katta miqdordagi qatag'on qurbonlaridan, ya'ni 10700 kishidan biz 8338 nafarini nomma-nom aniqladik va ular haqidagi asosiy ma'lumotlarni e'lon qildik. Ulardan 2358 nafari otilgani, 5903 nafari 10-8 yil qamoq jazosiga tortilgani, 77 nafari ozod etilgani ma'lum bo'ldi.⁴ Repressiya mashinasini to'htatish og'ir kechdi, repressiyani 4 oy muddatda tugatish mumkin bo'lmadi, u 1938 yilda ham davom etdi va uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichni 1938 yilning fevrali bilan belgilash mumkin. VKP (b) Markaziy komiteti 1938 yil 31 yanvarda “SSSR NKVD ning 1937 yil 30 iyuldagi buyrug'i bo'yicha repressiya qilish uchun qo'shimcha limitlarni tasdiqlash to'g'risida”

¹ +атагон = урбонлари. (1938 йил февраль, сентябрь). Тузувчилар. Р.Т.Шамсутдинов ва бош=. Бешинчи китоб. Тошкент, “Шар=”, 2009, Б.3

² Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивания, ссылка. 1929-1955 гг. документы и материалы. I, II, III тома. (Сост Шамсутдинов Р. Т., Расулов Б. М.) Год редакцией д.и.н. проф. Д.А.Алимовой. Т.: Шар= 2006.

³ Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивания, ссылка. 1929-1955 гг. документы и материалы. I, II, III тома. (Сост Шамсутдинов Р. Т., Расулов Б. М.) Год редакцией д.и.н. проф. Д.А.Алимовой. Т.: Шар= 2006.

⁴ Шамсутдинов Р. Катагон қурбонлари (1937 йил 10 август- 5 ноябр)- Тошкент, “Шарк”, 2007.- Б 497; Репрессия 1937-1938 гг. Документы и материалы. Выпуск 3. 1937 год. ноябрь.-Тошкент, “Шарк”, 2007.- С.496; Репрессия 1937-1938 гг. Документы и материалы. Выпуск 4. 1937 год. декабрь.-Тошкент, “Шарк”, 2008.-С.572. Шамсутдинов Р. Катагон қурбонлари (1938 йил февраль, сентябр)- Тошкент, “Шарк”, 2009.- Б 413;

qaror qabul qildi. Uni Markaziy Komitet Bosh kotibi I.Stalin imzolab, viloyatlar, o'lkalar partiya komitetlariga, milliy kompartiyalar Markaziy komitetlarga yo'lladi. qaror bilan SSSR NKVDsining repressiya qilinadigan sobiq quloqlar, jinoyatchilar va faol antisovet elementlarni repressiya qilish uchun qo'shimcha limit miqdori ham ko'rsatildi.

19 ta mintaq bo'yicha repressiya qilinadiganlar miqdori ham belgilanib qo'yildi. O'zbekiston SSR bo'yicha 2 ming kishi 1- kategoriya bo'yicha, ya'ni otuvga, 500 kishi 2- kategoriya bo'yicha, ya'ni 10-8 yil qamoqqa jazosiga repressiya qilish ko'zda tutilgandi. Repressiyani o'tkazish 1938 yil 15 martgacha tugallanishi ko'rsatilgandi.

Ma'lumki, N.I.Ejovning 1937 yil 11 dekabrda telegrammasida "quloqlar" operatsiyasi bo'yicha faoliyatda bo'lgan uchliklar o'z ishlarini 1938 yil 1 yanvargacha tugallashlari, mahalliy Ichki ishlar organlari operatsiya bo'yicha yakunlangan xisobotlarini topshirishlari kerak edi. VKP (b) Markaziy Komitetining 1938 yil 31 yanvardagi qarori bilan o'sha avvalgi uchliklar faoliyati muddati uzaytirildi. Barcha uchliklar ishni 1938 yil 15 fevralgacha tugallashlari belgilab qo'yildi.

Shu bois, O'zbekiston SSRda faoliyatda bo'lgan uchlik ham o'z ishini davom ettirdi.

Bu vaqtda O'zSSRdagi uchlik O'zSSR Ichki ishlar xalq komissari D.Z.Apresyan (rais), O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi Usmon Yusupov, O'zSSR prokurori Sheyndlin (a'zolari), Davlat xavfsizlik Komiteti leytenant, 8-bo'lim boshlig'i Baronenko (kotib)lardan iborat edi.

Shu tarkibdagi uchlik 1938 yil 4 fevralda 2 ta, 7 fevralda 2 ta, 9 fevralda 2 ta, 10 fevralda 3 ta, 13 fevralda 3 ta, 14 fevralda 1 ta, 16 fevralda 5 ta, 17 fevralda 3 ta, jami 21 ta yig'ilish o'tkazdi. Bu yig'ilishlarda 2491 mahbus ustidan hukm chiqarilib, ulardan 2086 mahbus otuvga, 398 mahbus 10 yil muddatga, 2 mahbus 8 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga qamoqqa hukm etildi, 4 mahbus tergov vaqtida vafot etgan, 1 mahbus ozod qilingan.

Kuniga o'rtacha 311-312 kishi ustidan hukm chiqarilgan. Masalan, 10 fevraldagi yig'ilishda 472 mahbus, 16 fevraldagi yig'ilishda 553 mahbus ustidan hukm chiqarilgan. Hukm chiqarishda mahbuslarning o'zlari ishtirok etmagan, uchlik joylardagi operativ sektorlar taqdim qilgan ayblovlarga asoslanib hukm chiqargan.

Hukmga tortilgan mahbuslar hududlar bo'yicha taqsimlanganda, eng ko'p miqdorda qatag'on qilinganlar Xorazm okrugida (752), Andijon okrugida (296), Buxoro okrugida (188), Samarqand okrugida (131), qoraqalpog'istonda (154), Namangan shahrida (320), qo'qon shahrida (102) bo'lgani aniqlandi.

Bu qatag'on qilinganlarning ijtimoiy tarkibida sobiq quloqlar 1771 kishi (71 foiz), ishchi-xizmatchilar 583 kishi, dindorlar, ruhoniylar, imom va eshonlar 153 kishi, sobiq savdogarlar 72 kishi, hibsga olinganda mashg'uloti aniq bo'lmaganlar 792 kishi bo'lgan. Milliy tarkibida esa o'zbeklar 1947 kishini, qoraqalpoqlar 142 kishini, 402 kishi esa rus va boshqa millat vakillari bo'lgan. Bir qancha bayonnomalarda mahbuslarning millati ko'rsatilmagan. Bunday holatda mahbuslarning yashash joyi, manzili, kasbi, ismi va sharifini bilish orqali qaysi millatga mansubligini aniqlash mumkin bo'ldi.

1938 yildagi repressiyaning ikkinchi bosqichi o'sha yilning sentyabrda to'g'ri keladi. VKP(b) Markaziy Komiteti Siyosiy byurosi 1938 yil 15 sentyabrda NKVD to'g'risidagi masala yuzasidan qaror qabul qiladi. SSSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1937 yildagi № 00485, № 00439 hamda 1938 yildagi № 302 va № 326 – sonli buyruqlari bo'yicha qamoqqa olingan aksilinqilobiy milliy kontingentlar bo'yicha ko'rilmay qolgan tergov ishlarini joylardagi maxsus uchliklarga berish haqidagi taklifini ma'qullaydi. Maxsus uchliklar oblastlar, o'lkalar va milliy Kompartiyalar Markaziy komitetlari birinchi kotiblari, NKVD boshliqlari va prokurorlar tarkibida tuzilishi ko'rsatiladi. Bu uchliklar 1938 yil 1 avgustgacha qamoqqa olinganlar ishini ko'rib chiqishlari va bu ishni 2 oy muddatda tugallashlari talab qilingan.

1938 yil 1 avgustdan keyin qamoqqa olinganlar milliy kontingent shaxslarning ishlarini tegishli sud organlariga ko'rib chiqish uchun yuboriladigan bo'lgan.

Maxsus uchliklarga SSSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1937 yil 25 avgustdagi № 00485 – sonli buyrug'i asosida birinchi kategoriya va ikkinchi kategoriya bo'yicha hukm

chiqarish huquqi berilgan. Agar ishda ayblanuvchining ishida etarli ayblov materiallari bo'lmasa, bunday shaxslarni qamoqdan ozod qilish haqida qaror qilinishi ko'rsatilgan. Maxsus uchliklarning birinchi kategoriya (otuvga hukm qilish) bo'yicha qarori zudlik bilan ijro etilishi aytilgan.¹

Siyosiy byuroning bu 1938 yil 17 sentyabrdagi qarorini rivojlantirish uchun SSSR Ichki ishlar Xalq komissarligining № 00606 – sonli maxsus uchliklar ishi tartibi to'g'risida buyrug'i qabul qilinadi va unda jazo siyosatini yumshatishga qaratilgan tadbirlar ilgari suriladi. Birinchidan, xorijliklarni qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lgan turli qiyinchiliklarni e'tiborga olib “maxsus uchliklar xorijlik fuqarolarga qo'zg'atilgan ishlarni ko'rmasligi” qayd qilingan. Ikkinchidan, “maxsus uchliklar” hukm chiqarganlarida 1937 yil 25 avgustdagi buyruq asosida birinchi va ikkinchi kategoriyalar bo'yicha ish ko'rsalarda, unga qo'shimcha, yangilik tarzida bu “maxsus uchliklar” ishini to'laroq tekshirish uchun qaytarib yuborishi va ayblanuvchini, agar jazo beruvchida etarli ma'lumotlar bo'lmasa, qamoqdan ozod qilish haqida qaror chiqarish imkoniga ega bo'lganlar.²

SSSR NKVDning 1938 yil 17 sentyabrdagi № 00606 – sonli operativ buyrug'iga muvofiq O'zbekiston SSR bo'yicha respublika Ichki ishlar xalq komissari D.Z. Apresyan raisligida O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi Usmon Yusupov (a'zo), O'zbekiston SSR prokurori Kuxarenko (a'zo)lardan iborat uchlik tuzildi. Uning kotibi qilib O'zSSR Ichki ishlar komissarligi huzuridagi inspektor, davlat xavfsizlik leytenanti Martinenko tayinlangan. Bu uchlik bor-yo'g'i ikki kun yig'ilish o'tkazgan.

Bayonnomalarda 475 mahbus ishlari ko'rib chiqilgani qayd etilgan. Ulardan oliy jazoga 98 kishi, 10 yil qamoq jazosiga 245 kishi, 8 yil qamoq jazosiga 31 kishi hukm qilingan. 21 mahbusning ishi qaytadan ko'rib chiqish uchun Harbiy tribunalgga yuborilgan, 4 mahbus ozod qilishga hukm etilgan. Qatag'on qilingan bu mahbuslarning milliy tarkibi quyidagicha bo'lgan: 195 kishi eroniy, 59 kishi uyg'ur, 43 kishi o'zbek, 41 kishi nemis, 18 kishi polyak, 13 kishi afg'on, 12 kishi rus, 11 kishi tojik, 10 kishi yahudiy, 10 kishi venger, 8 kishi fors, 8 kishi arman, 6 kishi turk, 5 kishi latish, 5 kishi koreys, 5 kishi dungan, 58 kishi qirg'iz, 4 kishi tatar, 3 kishi turkman, 3 kishi belorus, 2 kishi arab, 2 kishi hind, 2 kishi bolgar, 1 kishi qoraqalpoq, 1 kishi ukrain, 1 kishi grek, 1 kishi xitoy millatiga mansub bo'lgan. Ular 29 millat vakillari edi.³

1938 yil sentyabrda O'zbekiston SSRdan qatag'on qilinganlarning qariyb 91 % foizi boshqa millat (9% foizi o'zbeklar) vakillaridan iborat bo'lgan. Ana shu katta foizni tashkil etgan chel elliklar, xorijdan kelib respublikada o'ralashib kolgan, turli xil xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotganlar josuslikda, razvedkachilikda, (Eron josusi, Angliya josusi, Xitoy josusi, Latviya josusi, Turkiya josusi)kabi ayblar bilan qamoqqa olinganlar. Bundan tashqari respublikaning tub fuqarolari, sobiq quloq, sobiq bosmachi, ruhoniyning farzandi, aksilinqilobiy guruhlar a'zosi, amir chinovnigi, boy, savdogar, ilgari sudlangan, qamalgan, surgunda bo'lgan, aholi va jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalari bo'yicha ma'lumotlar yig'ib, sovet hukumatiga qarshi terrorchilik, g'oyaviy, fashistik, antisovet, antikolxoz, aksilinqilobiy tashviqotlar olib borgan, hududlardagi harbiy kuchlar, harbiy qismlar, organlar haqida axborot yig'ib, chetga uzatgan, emigratsion ruhdagi tashviqotlar olib borib, aholini Afg'onistonga, Eronga, Xitoyga, Tojikistonga va boshqa joylarga ko'chib o'tishga da'vat qilgan (chet davlatlar konsulliklari xodimlari bilan uzviy aloqada bo'lgan), yolg'on uydirmalar to'qib, aholining fikrini

¹ Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивания, ссылка. 1929-1955 гг. документы и материалы. I, II, III тома. (Сост Шамсутдинов Р. Т., Расулов Б. М.) Год редакцией д.и.н. проф. Д.А.Алимовой. Т.: Шар= 2006. Стр-206.

² Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивания, ссылка. 1929-1955 гг. документы и материалы. I, II, III тома. (Сост Шамсутдинов Р. Т., Расулов Б. М.) Год редакцией д.и.н. проф. Д.А.Алимовой. Т.: Шар= 2006. Стр-208.

³ Шамсутдинов Р. Катагон қурбонлари (1937 йил 10 август- 5 ноябр)- Тошкент, “Шарқ”, 2007.- Б 497; Репрессия 1937-1938 гг. Документы и материалы. Выпуск 3. 1937 год. ноябрь.-Тошкент, “Шарқ”, 2007.- С.496; Репрессия 1937-1938 гг. Документы и материалы. Выпуск 4. 1937 год. декабрь.-Тошкент, “Шарқ”, 2008.-С.572. Шамсутдинов Р. Катагон қурбонлари (1938 йил февраль, сентябр)- Тошкент, “Шарқ”, 2009.- Б 413;

o'zgartirishga harakat qilgan degan "ayblar" bilan qatag'on qilinganlar. Chet elliklarning 88-90 % foizi turli, ayniqsa aholi ko'p ishlaydigan joylarda, zavod, fabrika, artellar, kolxozlar, harbiy qismlar, nonvoyxonalar, sartaroshxonalar, RayFo, SelPO, choyxonalar, paxta zavodlari, magazin va do'konlarda savdogarlar ma'lumot to'plab va aholi o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borganlikda ayblanganlar. Xorijliklarning ma'lum qismi oliy ma'lumotli bo'lgan, ular oliy o'quv yurtlarida, maktablarda chet tilidan o'qituvchi, xo'jalik ishlarida ishchi, tarjimon va boshqa vazifalarda ishlaganlar. Ularning ayrimlari chet el fuqarosi sifatidagi soxta pasport yoki umuman pasportsiz yashab, faoliyat ko'rsatganlar.

Bunday ayblar bilan aybdor deb topilganlarning 20 foizi otuvga, 75% foizi 10, 8, 5 yilga qamoq jazosiga hukm qilingan, 21 kishi (4% foiz)ning ishi qayta ko'rib chiqish uchun Harbiy tribunalga yuborilgan, 4 kishi aybsiz deb topilib, qamoqdan ozod etilgan.

1938 yil 23 oktyabrdagi buyruq bilan SSSR NKVDning organlaridagi tergov ishlarini tartibga solish bo'yicha tadbirlari tasdiqlandi. Xususan, NKVDning operativ bo'limlarda maxsus tergov qismlarini tashkil etish qarori ma'qullandi. NKVD organlaridagi tergov ishlarini to'g'ri tashkil qilishga alohida e'tibor berib, markazda va joylarda siyosiy jihatdan eng yaxshi tekshirilgan, o'zini ishda malakali qilib ko'rsatgan partiya a'zolaridan tergovchilar tayinlash SSSR NKVDsiga yuklatildi.

Markazda va joylarda NKVD organlaridagi tergovchilar faqat SSSR NKVD buyrug'i bo'yicha tayinlanadigan bo'ldi.

Ushbu qarorni aniq bajarilishini ta'minlash uchun SSSR NKVD va SSR Ittifoqi prokuroriga o'zlarining mahalliy organlariga ko'rsatma berish topshirildi.

SSSR XKS va VKP(b) MK barcha NKVD va prokuratura xodimlari diqqatini yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni keskin bartaraf qilishga, butun tergov va prokurorning ishlarini yangicha tashkil qilishga qaratdi. Ayni vaqtda NKVD va prokuraturadagi barcha xodimlarni sovet qonunlarini hamda partiya va hukumat direktivalarini biroz buzgandek bo'lsalar, ularning shaxsiyatiga qaramay, og'ir sud javobgarligiga tortilishi mumkinligi qo'shma qarorda ko'rsatib o'tildi.

Ushbulardan ma'lumki, sovet rejimi tomonidan 1937 yil iyulidan boshlangan "Katta terror" 1938 yilning noyabrigacha davom etgan. Bu mudhish qatag'on butun sobiq Ittifoq xalqlari tarixiga eng fojeali sahifa bo'lib kirdi. Ular bu fojeani hech qachon, aslo o'z qalblari va xotiralaridan chiqarmaydilar. Bu fojea tariximizning eng og'ir, qayg'uli, alamli, hasratli, motamli sahifasidir.

1937-1938 yillarda amalga oshirilgan qatog'on siyosati butun ittifoq, shuningdek O'zbekistonda bo'lgani kabi Asaka tumanini ham chetlab o'tmadi. 1937 yil 30 iyuldagi 00447-sonli buyrug'i asosida 1937-1938 yillar «Katta terror» davrida ko'plab Asakalik vatandoshlarimiz qatog'on tig'iga tortildilar. «Katta terror» davrida qatog'on qilingan Asakalik vatandoshlarimizning ijtimoiy tarkibini tahlil qilganimizda asosan, sobiq quloqlar, sovet xukumatiga, bolsheviklarning agrar siyosatiga qarshi fikr bildirganlar, diniy ulamolar tashkil etgan. Bularning ichida ziyolilar, ulamolar, imom, eshon va boshqa musulmon ruhoniylar ham ko'pchilikni tashkil etgan. Sobiq quloqlar va diniy ulamolarga asosan sovet hukumatiga qarshi chiqqan kuchlar sifatida qaralgan. Ularga qo'yilgan ayblovlarda dindorlarning aksilinqilobiy guruhlariga a'zoligi, xukumatga qarshi mag'lubiyatchilik, diniy ruhdagi antisovet fikrlar, mish-mishlar tarqatganlik va boshqa ayblovlar qo'yilgan.

Hozirgi kunda 1937-1938 yillarda qatog'onga uchragan vatandoshlarni jumladan Asakalik qatog'on qurbonlarini izlab topish ularni ijtimoiy kelib chiqishi, nohaq qatog'on qilinishi, ularning keyingi taqdiri, avlodlarining taqdirini izlab topish boraisda Respublikamiz hukumati tomonidan ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada ko'plab olimlarimiz samarali ijod qilmoqda. Jumladan Andijonda tashkil topgan «Meros» xalqaro jamg'armasi professor R.T.Shamsutdinov rahbarligida ko'plab xayrli ishlarni amalga oshirmoqda. Bugunga kelib prof. R. T. Shamsutdinov rahbarligida 1937-1938 yillarda qatog'on tig'iga tortilgan vatandoshlarni noma-nom aniqlab, Obiddinov Ibroxim Sarkor, Sa'diev Mulla Arabboy, Nazarso'fiev Soliqori, Soipov Yo'ldoshlarning taqdiri xaqida materiallar to'plami yaratildi. Endigi vazifa o'sha

Asakalik vatandoshlarimiz qismati, bosib o`tgan yo`l tarixini kengroq yoritish va ular haqidagi bor haqiqatni tiklashdan iboratdir.

3. Qatag'on qurbonlarining xozirgi avlodlari.

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" nomli kitobida tarix va ma'naviyat tushunchalarini atroflicha yoritgan ekan, jumladan: "dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, buysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi."¹

Yurtboshimiz fikrini davom ettirgan ekan, ma'naviy tahdid deganda, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qaratilgan xurujlarni nazarda tutish lozim, deb ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, XX asrning 20-30 yillarida "daho" Stalinning hokimiyati va uning tarafdorlari tashabbusi bilan amalga oshirilgan majburiy kollektivlashtirish, quloqlashtirish, ular bilan parallel ravishda amalga oshirilgan surgun va 1937-1938 yillardagi "Katta qirg'in" siyosatlarini xalqni – xalqligidan, millatni-millatligidan, otani-boladan, bolani-onadan ajratib tashladi.

Nikolay Ejoyning 1937 yil 10 yildagi mudhish qarori minglab odamlarning yostig'ini quritdi, boshpanasidan ayirdi, tinchini buzdi, xo'rladi, insonni – inson, millatni-millat bo'lib yashashiga yo'l bermadi. Vaholangki, 1937-1938 yillarda nafaqat ma'lum bir xalq yoki millat, balkim bir vatanda yashovchi barcha millat vakillarini ham chetlab o'tmadi.

Qatag'on zulmiga giriftor bo'lgan yurtdoshlarimizni nomma-nom aniqlash, ularni qatag'on qilingan qatlgohlarini izlab topish va u erlarda yodgorlik majmualarini yaratish bizning istiqbol, erk, ozodlik, millat uchun kurashgan ajdodlarimiz ruhi oldida ham qarz, ham farzligini aslo unutmasligimiz lozim.

Bugungi kunda millat uchun, vatan uchun jon fido etgan, sovet rejimi qatag'oniga uchragan, yurtboshimiz fikri bilan aytganda ma'naviy jasorat ko'rsatgan yurtdoshlarimizni nomma-nom aniqlash, ularning keyingi taqdiri, avlodlarini izlab topish, ulardan xotiralar olish mammosi ham hal qilinishi kerak bo'lgan masalalardan biridir.

Qatag'on zulmiga giriftor bo'lgan asakalik vatandoshimiz Obiddinov Ibroxim Sarkordir.

Obiddinov Ibroxim Sarkor-1881 yilda tug'ilgan, Lenin rayoni Emonyor qishlog'idan, quloqqa tortilgan, avvalda Sho'roi Islom tashkilotida bo'lgan. Xibsga olingunga qadar aniq Mashg'uloti bo'lmagan doimiy ravishda kolxozchilar orasida aksilinqilobiy kolxozga qarshi targ'ibot olib borganlikda SSSRdagi ocharchilik to'g'risida mish-mishlar tarqatganlikda yaqin orada urush bo'lishi haqida va xukumatdagi o'zgarishlar to'g'risida tashviqot olib borganlikda ayblangan.²

Qatag'on qurboni Obiddinov Ibroxim Sarkorni istab, Asaka tumaniga bordim. Ilmiy raxbarim dotsent S.A.Xoshimovning maslaxati bilan xozirgi kunda Emonyor qishlog'i Farg'ona viloyati Quva tumaniga qarashli ekanligini bildim. Shundan so'ng Farg'ona viloyati Quva tumani Emonyor (Bu qishloq Emonjar deb xam nomlanar ekan) qishlog'iga borib, Emonjar qishloq fuqarolari yig'ini raisi Rustamaka Soliev bilan uchrashdim. Biz o'z maqsadimizni tushintirganimizdan so'ng bizni qatag'on qurboni Obiddinov Ibroxim Sarkor nabirasi Muxammadaminakaga uchrashtirdi. Muxammadaminaka Ibroximov xotirlashicha³ bobom maqtab gapirish emasulekin yomon odam bo'lmagan. Dadam Obiddinov Mirsidiqning aytishicha 20 gektar eri bo'lgan. Erni ko'proq qismiga paxta ekib, rus savdogarlariga sotar edi. Qo'lida ko'plab ijarachi dexqonlar shu er orqali oila tebratar edi. Quloq qilish jarayonida keyinchalik o'sha NKVD xodimlari kelib dab-duristdan olib ketgan. Shundan so'ng qaytib kelmagan. Erklarimizni tortib olgan. Maxallada biron-bir noxush voqea sodir bo'lsa doimiy ravishda sen

¹ Каримов И. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008. 13-бет.

² Шамсутдинов Р. Қатагон қурбонлари (1937 йил 10 август- 5 ноябр)- Тошкент, "Шарк", 2007.- Б 153

³ Мухаммадминакка Иброхимов хотираларидан. Farg'ona viloyati Quva tumani Emonyor qishlog'ida 2011 yil 25 aprel kuni Marupov Sherzod tomonidan yozib olingan.

«yomon» odamning farzandisan deb dadamni olib ketishardi. Oilada bobomni uchta o'g'li bo'lgan.

Obiddinov Qodirjon. Ikkinchi jaxon urushiga ketib qaytib kelmagan.

Obiddinov Xoliqjon. U xam Ikkinchi jaxon urushiga ketib qaytib kelmagan.

Obiddinov Mirsiddiq. 1982 yila vafot etgan.

Dadam Obiddinov Mirsiddiq avvaliga dexqonchilik qilgan. Keyinchalik maxalla oqsoqoli bo'lib, qishloqda katta obodonchilik ishlarini olib borgan. Obiddinov Mirsiddiq 7 ta farzandi bo'lgan.

1. Ibroximov Raimjon. 1940 yilda tug'ilgan.

2. Ibroximova Xadichaxon 1950 yila tug'ilgan.

3. Ibroximova Kumushxon 1953 yilda tug'ilgan.

4. Ibroximov Muxammadamin 1960 yilda tug'ilgan.

5. Ibroximov Jumavoy 1962 yilda tug'ilgan.

6. Ibroximov Raxmonjon 1963 yilda tug'ilgan.

7. Ibroximova Ominaxon 1967 yilda tug'ilgan.

Bundan tashqari urush vaqtida kelib qolgan etim bolani asrab olgan. Unga vaxob jon deb ism qo'ygan. Xozirda farzandlarining eng kattasi xisoblanadi. Qatag'on qurboni Obiddinov Ibroxim Sarkordan biron-bir esdalik qolganmi degan savolimizga Muxammadaminaka bizga Obiddinov Ibroxim Sarkor rasmini bizga ko'rsatdi. (Bu rasm ilovada keltirilgan)

Yana bir qatag'on qurboni Soipov Yo'ldoshdir.

Soipov Yo'ldosh 1887 yilda tug'ilgan. Lenin rayoni Emonyor qishlog'idan, 1933 yili quloqqa tortilgan. O'tmishda bosmachi, qo'rboshi bo'lgan. Xibsga olingunga qadar aniq mashg'uloti bo'lmagan. Kolxozchilar orasida aksilinqilobiy mag'lubiyatchilik, kolxozga qarshi targ'ibot olib borib, SSSRga qarshi urush vaqtida sovet xokimiyatiga qarshi kurashaman deb aytganlikda, sovet xokimiyati turli xil soliqlar ko'rinishida dexqonlarni bor-budidan maxrum qilmoqda deb aytganlikda ayblangan.¹

Farg'ona viloyati Quva tumani Emonjar qishlog'iga borib, Emonjar qishloq fuqarolari yig'ini raisi Rustamaka Soliev bizni qatag'on qurboni Soipov Yo'ldoshning qo'shnisi va qarindoshi bo'lmish Emonjar qishloq oqsoqoli Abdullaev Muzaffaraka bilan uchrashtirdi Abdullaev Muzaffaraka qatag'on qurboni bo'lgan Soipov Yo'ldosh xaqida quyidagicha xotirladi.²

Qatag'on qurboni Soipov Yo'ldosh qo'rboshi bo'lgan. Totalitar tuzum davrida bizning dinimiz, qadriyatlarimiz poymol qilinmoqda deb norozilik bildirgan Shuning uchun xam uni amoqqa olingan. Keyinchalik otuvga xukm qilingan. Avlodlari bormi degan savolimizga uni bita o'g'li bo'lgan ekan. U xam 30 yoshga borib vafot etgan. Undan bir qiz Yulduz ismli farzand qolgan. Yulduzopa Farg'onaga turmushga chiqib ketganligi xaqida ma'lumot bor. Lekin manzili yo'qligini aytib o'tdi. Xozirgi kunda Qatag'on qurboni Soipov Yo'ldoshdan faqat o'zi yashagan uyi qolgan. (Bu uy ilovada keltirilgan.)

Nazarso'fiev Soli Qori-1896 yili tug'ilgan, Lenin rayoni Marayin qishlog'idan, imom, xibsga olingunga qadar diniy marosimlar xizmatchisi. Doimiy ravishda targ'ibot olib borganlikda, sovet xokimiyatining yaqin orada qulashi to'g'risidagi tashviqot olib borganlikda 2 yil davomida aksilinqilobiy she'rlar yozib axolii orasida o'qiganlikda ayblangan.³

Qatag'on qurboni Nazarso'fiev Soli Qorini tug'ilgan Marayin qishlog'i xozirgi kunda Farg'ona viloyati Quva tumanida joylashgan ekan. Marayin qishlog'iga borib, biz Marayin QFY raisi Tursunov Sultonaliaka bizni Nazarso'fiev Soli Qorining farzandi Soliev Xolmirzaota bilan

¹ Шамсутдинов Р. Қатагон курбонлари (1937 йил 10 август- 5 ноябр)- Тошкент, "Шарк", 2007.- Б 154.

² Abdullaev Muzaffaraka xotiralaridan. Farg'ona viloyati Quva tumani Emonyor qishlog'ida 2011 yil 25 aprel kuni Marupov Sherzod tomonidan yozib olingan.

³ Шамсутдинов Р. Қатагон курбонлари (1937 йил 10 август- 5 ноябр)- Тошкент, "Шарк", 2007.- Б 153

uchrashtiridi. Xolmirzaotaning xotirlashicha¹ men uch yoshligimda otamni qamoqqa olganlar ekan. Oilada besh o'g'il bo'lganmiz. Akalarim Nazarso'fiev Mamasidiq, Nazarso'fiev G'oyazar, Nazarso'fiev Mamasodiq, Nazarso'fiev Qurbonalilar xammasi jahon urushidan (Ikkinchi jahon urushi) qaytib kelmaganlar. Ular Vatanimiz sharafiga munosib himoya qilib, fashist dushmanlariga qarshi mardonovar kurash olib borganlar. Dadam o'z davrining boylaridan biri bo'lib, nihoyatda katta eri bo'lgan. Shuning uchun ham bor mol-mulkini kolxozga musodara qilib, o'zining o'sha kolxozga rais qilib saylashgan. Ko'p o'tmay dadamga bir necha bo'xtonlar to'qib, qamoqqa olishgan. Shundan so'ng, dadam avval Andijon turmasida olib ketishgan. Onamning aytishicha, Andijon turmasidan olib ketgan deyilgan. Keyin bilsak, dadamni otuvga xukm qilganlar ekan. Xudoga shukrki, mustaqillikka erishganimizdan so'ng aybsiz aybdorlar oqlandi. Shu munosabat bilan Prezidentimizga katta raxmat aytnoqchiman. Shu qatorda professor R.T.Shamsutdinovga millat oldidagi bu ezgu harakatlari uchun bu kishining ishlariga ulkan zafarlar tilayman.

Yana bir qatag'on qurboni Sadiev Mulla Aranboydir.

Sadiev Mulla Aranboy-1890 yili tug'ilgan. Lenin rayoni Abdujuvoboshi qishlog'idan, sobiq savdogar, avvalda «Sho'roi Islom» tashkilotida bo'lgan, xibsga olingunga qadar aniq mashg'uloti bo'lmagan. Axolii orasida aksilinqilobiy, mag'lubiyatchilik va kolxozga qarshi targ'ibot olib borganlikda, yaqin orada chet El davlatlari bilan urushda sovet xokimiyati qulaydi degan Mish-mishlar tarqatganlikda, x'alq dushmanlari to'g'risida raxmdillik kayfiyatini bildirganlikda ayblangan.²

Qatog'on qurboni bo'lgan Sadiev Mulla Aranboyini istab, Asaka tumani Abdujuvoboshi (hozirgi kunda Abjuvoz deyiladi) qishlog'iga borib Abjuvoz QFYga uchradik. QFY raisi Sodiqjon Qo'chqarov qishloq oqsoqollaridan so'rab bizga yordam berishga xarakat qildik. Lekin, Sadiev Mulla Aranboy xaqida ma'lumot topa olmadik. (Bu xaqda ilovada ko'rsatilgan.)

¹ Soliev Xolmirzaota xotiralaridan. Farg'ona viloyati Quva tumani Emonyor qishlog'ida 2011 yil 25 may kuni Marupov Sherzod tomonidan yozib olingan.

² Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари (1937 йил 10 август- 5 ноябр)- Тошкент, “Шарк”, 2007.- Б 153

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimizki 1937-1938 yillar davri «katta terror» davrini kulminatsion nuqtasidir. Biz bu «katta terror» kimlar tomonidan «ijod qilingani» va bu mudxish fojeaning ildizlari chuqur ekanligining va uni aniqlash yo'lida turli qarashlar, talqinlar borligining ham shohidi bo'ldik.

Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ayon bo'ladiki, siyosiy qatog'on va uning bir qismi «katta terror»ning yuzaga kelishida muayyan ob'ektiv sabablar ham bo'lgan. Partiya va sovet hakimiyatiga, ayniqsa ularning rahbariyatiga qarshi qaratilgan muxolifat kuchlar kurash olib borib, siyosiy hokimiyatni o'z qo'llariga olish uchun bor imkoniyatlarini ishga solib, barcha vositalarni qo'llab, tish-tirnoqlari bilan jang olib bordilar. Bundan tashqari, mamlakatning turli mintaqalaridagi, hatto poytaxt Moskva va boshqa yirik shaharlarda uzoq vaqtdan beri rahbarlik lavozimlarini egallab kelayotgan partiya funktsionerlari mavqelarini, rahbarlik lavozimlarini qo'lda saqlab qolish maqsadida «aksilinqilobchilar», «sovetlarga qarshi kuchlar», «sobiq quloqlar», «jinoyatchilar», sovetlarga saylov o'tkazish jarayoniga qarshilik ko'rsatayotganligini ro'kach qilib, raqiblarga nisbatan keskin repressiv choralar ko'rishni Markazdan, Siyosiy byurodan, Stalindan so'rab muroaat qildilar. Aslida ular 1936 yilgi SSSR Konstitutsiyasida belgilab berilgan yangi saylov tizimiga qarshi o't ochgan edilar. Chunki ngi saylov tizimida real hokimiyatni partiyadan halq qo'liga olib berish, keng xalq demokratiyasini joriy qilish, davlatchilikni mustahkamlash vazifalari ilgari surilgan edi. Yangi saylov tizimi asosida saylov o'tkazish tufayli ana shu mahalliy partiya rahbarlari real amal vazifalaridan mahrum bo'lishi kutilardi. Shu bois partiya funktsionerlari barcha «sovetlarga qarshi kuchlar»-sobiq quloqlar va jinoyatchilarni qamoqqa olish, otuvga xukm etish takliflari bilan Markazga murojaat qildilar. Xullas, 1937-1938 yillardagi «katta terror»ning yuzaga kelishida mahalliy partiya funktsionerlarining o'rni va roli ham oz bo'lmagan.

Sobiq Ittifoqning bir qismi bo'lgan O'zbekistonda ham ana shu «katta terror» davrida ko'plab vatandoshlarimizning xaq-xuquqlar toptaldi, begunoh yurtdoshlarimizga to'qima soxta ayblar qo'yildi, xilma-xil chaquvlar, tuhmatlar ishga solindi, tergov jarayonida mahbuslar behad qiynovga, ham jismoniy, ham ruhiy azobga solindi. «Uchlik»ning xukmi bilan minglab odamlarimiz otuvga xukm etildi, xukmlar joylarda tezkorlik bilan ijro etildi, har bir okrugda qatlgohlar, noma'lum qabristonlar paydo bo'ldi. 8-10 mehnat tuzatuv lagerlariga xukm qilingan qatog'on qurbonlari uzoq-uzoq yurtlarga-Shimolga, Uzoq Sharqqa, Sibirga, Uralga, Shimoliy Qozog'istonga surgan qilindilar. Ularning katta qismi o'sha begona yurtlarda qamoq azoblariga bardosh berolmay halok bo'ldilar, juda ham oz qismi keyinchalik ozod bo'lib yurtga qaytdilar.

Xullas, ushbu bitiruv malakaviy ishimizda qatog'on qurbonlari bo'lgan, begunoh vatandoshlarimiz Asakalik beayb insonlar Obiddinov Ibroxim Sarkor, Sa'diev Mulla Arabboy, Nazarso'fiev Soliqori, Soipov Yo'ldoshlarning xayot yo'li, qismati va taqdirini uning avlodlari timsolida yoritib berishga harakat qildik.

1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1996.
2. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1996.
3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998.
4. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан курашимиз. 7- жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1999.
5. Каримов И.А. Империя даврида бизни иккинчи даражали одамлар, деб шисоблашар эди. “Хал= сызи” гезетаси 2005 йил, 19 январь.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Ўзбекистон, 2008.
7. Каримов И.А. Энг асосий мезон – ҳаёт ҳақиқатини экс эттириш. –Т.: Ўзбекистон, 2009.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Қатағон қурбонлари хотирасини абадийлаштириш тўғрисида”. – Тошкент, 1999 йил 12 май.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Қатағон қурбонларини ёд этиш кунини белгилаш тўғрисида”. – Тошкент, 2001 йил 1 май.
10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори “Ватан ва халқ озодлиги йўлида қурбон бўлган фидойилар хотирасини абадийлаштириш тўғрисида”. – Тошкент, 1999 йил, 22 июль.
11. Шамсутдинов Р.Т. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.:Шарқ, 2001.
12. Шамсутдинов Р.Т. Истиқлол йўлида шаҳид кетганлар. –Т.: Шарқ, 2001.
13. Шамсутдинов Р.Т. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун (Ўрта Осиё республикалари мисолида). –Т.: Шарқ, 2003.
14. Шамсутдинов Р.Т., Мамажонов А. Шимолий Кавказ сурғунидаги юртдошлар қисмати. –Т.: Шарқ, 2005.
15. Репрессия: 1937-1938 годы. Документы и материалы. Выпуск №1. Сост: Шамсутдинов Р.Т., Каримов Н.Ф., Юсупов Э.Ю. отв. ред. Н.Ф.Каримов. – Т.: Шарқ, 2005, - 285 с.
16. Шамсутдинов Р. ва бошқалар. Тарихнинг ҳасратли саҳифалари. –Т.: Шарқ, 2006.
17. Шамсутдинов Р.Т, Б.Расулов. Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивания, ссылка. 1929-1955гг. Документы и материалы. Том I-III. –Т.: Шарқ, 2006.
18. Шамсутдинов Р.Т. Катта террор айбдорлари ҳақида янгича талқинлар. - Андижон, 2007.
19. Шамсутдинов Рустамбек. Қатағон қурбонлари. (1937 йил 10 август-5ноябрь). Иккинчи китоб. –Т.: Шарқ, 2007.
20. Ватанамиз ўтмишидан. -Андижон, 2007.
21. “Репрессия” 1937-38гг. Документы и материалы. Выпуск 3. Жертвы Большого террора из Узбекистана. 1937 год, ноябрь. Сост: Шамсутдинов Р.Т., Юсупов Э, Мамажонов А, Дўсматов Э. – Т.: Шарқ, 2007.
22. Репрессия 1937-38гг. Документы и материалы. Выпуск 4. Жертвы Большого террора из Узбекистана. 1937 год, декабрь. Сост: Шамсутдинов Р.Т., Абдуллаев М., Дўсматов Э.П., Курбанов Х.Р. –Т.: Шарқ, 2008.
23. Андижон тарихидан лавҳалар. – Андижон, 2008.
24. Қатағон қурбонлари. 1938 йил феврал, сентябр. Бешинчи китоб. Тузувчилар: Шамсутдинов Р., Қурбонов Х., Расулов Ж., Эгамбердиев Ф., Бекимматов У. Т.: Шарқ, 2009.
25. Шамсутдинов Р., Акбарова М. Шимолий Қозоғистон сурғунидаги юртдошлар қисмати. Т.: Шарқ, 2009.
26. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2-жилд. Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат нашриёти, 2002.

27. www.uzmeros.uz/books.hph. “Мерос” халқаро илмий-амалий экспедиция хайрия жамғармаси фонди китобларидан.
28. Muxammadaminaka Ibroximov xotiralaridan. Fargʻona viloyati Quva tumani Emonyor qishlogʻida 2011 yil 25 aprel kuni Marupov Sherzod tomonidan yozib olingan.
29. Abdullaev Muzaffaraka xotiralaridan. Fargʻona viloyati Quva tumani Emonyor qishlogʻida 2011 yil 25 aprel kuni Marupov Sherzod tomonidan yozib olingan.
30. Soliev Xolmirzaota xotiralaridan. Fargʻona viloyati Quva tumani Emonyor qishlogʻida 2011 yil 25 may kuni Marupov Sherzod tomonidan yozib olingan.